

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

4,5 soat davom etgan videoselektorda 22 yillik pedagogik faoliyatim ko'z o'ngimdan o'tdi va shu yillar davomida qilgan ishlarimning birortasidan qoniqmadim. Bitta holatdan juda uyaldim. Prezidentimiz bizdan qayta-qayta so'rayotgan vazifalarni allaqachon bajarishimiz kerak edi.

4-bet

"Izlanganga omad yor"

Tumanda o'quvchilarning bilim sifati va pedagoglarning salohiyatini oshirish borasida o'ziga xos tajribalar mavjud. Shulardan biri tuman maktablarida "O'qituvchi reytingi"ning yuritilayotganidir.

5-bet

Syanganda "Qora qo'llar"ning qora niyatlari

Xitoy tashqi kuchlar tezroq "og'izlarini yumishiga" va Syanganning ichki ishlariga aralashmasligiga umid qiladi



11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 28-avgust, chorshanba № 67 (9236)

Xalq ziyolilari gazetasi



Yosh olimlar yangi uyda

7-bet

Maktab o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi!

Mushtariy muhokamasi



"O'zbekistonda eng hurmatli inson — muallimdir!"

“2020-yilning 1-yanvaridan hech qaysi xalq ta'limi xodimi, direktor va boshqalar maktab ta'miri bilan shug'ullanmaydi, bu ishlarni mahalliy hokimliklar bajaradi... Bu gaplar minglab pedagoglarning ko'nglida umid uyg'otdi. Quruvchilik, ta'mirlash, pul yig'ish kabi ta'limga daxli bo'lmagan ishlar o'qituvchilar zimmasidan soqit qilinsa, ta'lim sifati ham yuksaladi. Negaki pedagogni chalg'itadigan, ranjitadigan, charchatadigan narsalar bo'lmaydi. U faqat dars, ta'lim-tarbiya haqida bosh qotira boshlaydi.

Qanday yaxshi! Men ham videoselektorda qatnashdim. Taassurotlarim katta! Davlatimiz rahbari "Hokimlarning ishini maktab-larga borib baholayman" degan ma'noda gapirdilar. Har bir maktab bittadan rahbarga birlashtirilgan, universitet va maktab hamkorligi mustahkamlanar ekan. Bunday islohotlar amalga oshirilsa, yaqin yillarda ta'limda yuksak natijalarga erishiladi.

9-bet



Bog'lar quchog'idagi maktab

Ona yurtimizning eng ulug', eng aziz bayrami — Mustaqillik shodiyonalari yaqinlashayotgan bir paytda Bilimlar kuni, ya'ni o'quv yilining boshlanishi har bir o'quvchi qalbini cheksiz g'ururga, zavq-u shavqqa to'ldiradi. Yakkabog' tumanidagi 37-maktabda ham har yili Mustaqillik bayrami o'zgacha nishonlanadi. Maktab direktori tashabbusi bilan barpo etilgan "Mustaqillik bog'i" dagi sarxil mevalar ayni shu kunlarda yetilib pishadi. An'anaga ko'ra, ushbu mevalardan maktab o'quvchilariga ulashiladi.

Mana shunday obod ta'lim muassasasida, bag'rikeng ustozlar qo'lida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilar Vatanga sodiq, ustozlariga mehr-muhabbatli, bilimli bo'lib yetishishi shubhasiz. Qashqadaryo viloyatida 1 240 ta umumta'lim muassasasi bo'lib, 104 tasi Yakkabog' tumanida joylashgan. Ular orasida o'quvchilarining bilim darajasi, pedagog kadrlarining salohiyati, muassasaning tutgan o'rni va nufuzi jihatidan yaqqol ajralib turadiganlari talaygina. Shular qatorida tumandagi 37-maktabning ham o'z o'rni bor. 1961-yildan buyon faoliyat yuritayotgan ushbu maktab quvvati 665 o'rinni bo'lsa-da, 800 ga yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda. Hozir maktabda 64 nafar pedagog xodim faoliyat yuritayapti.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
FarmoniOLIV TA'LIM MUASSASALARI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING UZLUKSIZ
MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI JORIY ETISH TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining (keyingi o'rinlarda — rahbar va pedagog kadrlar) kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari, jumladan, masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio axborot tizimlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning amaldagi tartibi samarasi past bo'lganligi, ko'p resurs sarflashni talab etayotgani hamda zamonaviy talablarga javob bermayotganligi ushbu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo'llashni talab etmoqda.

Rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga keng joriy etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'z tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan boshqa vazirlik va idoralarning 2019-yil 1-sentabrdan rahbar va pedagog kadrlar-ning uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar rahbar va pedagog kadrlar uzluksiz malakasini oshirish tizimining asosiy vazifalari etib belgilansin:

rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash va monitoring olib borish;

rahbar va pedagog kadrlarning ilmiy-pedagogik salohiyatidan kelib chiqib, ularning kasbiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz malaka oshirishning shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish;

rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullari sohalaridagi ko'nikmalarini rivojlantirish;

yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini doimiy yangilab borish, ularning faoliyatini zarur darajada tashkil etish va samaradorligini ta'minlash;

rahbar va pedagog kadrlarda Internet jahon axborot tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalanish holda ilg'or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

rahbar va pedagog kadrlarning chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasbiy mahoratini, pedagogik va ilmiy faoliyatini samaradorligini muttasil oshirib borish imkoniyatlarini yaratish.

3. Belgilab qo'yilinski, rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishi: mutaxassislik bo'yicha mustaqil malaka oshirish;

muqobil malaka oshirish; ta'lim dasturlari asosida ixtisoslashtirilgan qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarida bevosita o'qish shakllarini o'z ichiga oladi.

Bunda rahbar va pedagog kadrlarga ularning kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalaridan kelib chiqib, muqobil malaka oshirish yoki ta'lim dasturlari asosida o'qish shakllarini tanlash imkoniyati beriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ishdan ajragan holda to'g'ridan to'g'ri (bevosita) o'qish umumiy davomiyligini 144 soat etib belgilash;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida professor-o'qituvchilarning sonidan kelib chiqib belgilanadigan, kamida 3 ta shtat birligidan iborat ta'lim texnologiyalari kafedralarini tashkil etish;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida samarali dars berayotgan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislar faoliyati tahlilidan kelib chiqib, ularga bazaviy lavozim maoshining 30 foizigacha oylik ustamalar belgilash, shuningdek, mashg'ulotlar o'tkazish uchun soat-bay ish haqi to'lash shartlari bilan jalb etilgan malakali professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislarni soatbay haq to'lash miqdorining 20 foizigacha ko'paytirilgan holda moddiy rag'batlantirish;

pensiya yoshidagi, uch yoshga to'lmagan farzandi bor ayollar hamda nogironligi bo'lgan rahbar va pedagog kadrlarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qishini masofaviy shaklda tashkil etish;

rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarining qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatish asosida ishlab topgan budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan ushbu markazlar xodimlari lavozim maoshlariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga ko'ra 200 foizgacha ustama haq to'lash;

oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlari tuzilmasiga xalqaro hamkorlik bo'yicha mutaxassis lavozimini kiritish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan birligida bir oy muddatda rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdori va shartlarini mazkur Farmon talablaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur Farmonning amalga oshirilishi uchun zarur mablag'larni 2019-yilda ijtimoiy soha uchun tasdiqlangan mablag'lar doirasida ajratsin, 2020-yildan boshlab esa Davlat budgetining parametrlarida zarur moliylashtirishni har yili nazarda tutsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda mazkur Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibini nazarda tutuvchi qaror qabul qilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoniga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilsin.

9. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A.Abdurahimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2019-yil 27-avgust

Sh.MIRZIYOYEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING "OZODLIKDAN MAHRUM ETISH JAZOSINI O'TAYOTGAN,
QILMISHIGA CHIN KO'NGILDAN PUSHAYMON BO'LGAN VA TUZALISH YO'LIGA QAT'IV O'TGAN BIR GURUH
SHAXSLARNI AFV ETISH TO'G'RSIDA"GI FARMONIGA SHARH

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borila yotgan keng ko'lamli islohot va yangilanishlar jarayonida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, har bir inson o'z orzu-inillishlari va salohiyatini ro'yogga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishga eng ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki islohotlarimizning asosiy maqsadi ham butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini xalqimiz farovonligi yo'lida birlashtirish hamda shu orqali barcha yurtodoshlarimiz uchun munosib turmush sharoitlarini yaratib berishdan iboratdir.

Bu jarayonda adashib, turli noto'g'ri yo'llarga kirib qolgan, bugungi kunda o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, to'g'ri xulosa chiqarib olgan fuqarolar ham davlatimizning e'tiboridan chetda qolmayapti, ularga nisbatan afv instituti qo'llanib, oilasi va jamiyat oldidagi ma'naviy qarzini uzish uchun imkoniyat berilmoqda. Keyingi uch yilda yurtimizda 7 marta afv e'lon qilinib, 3 952 nafar shaxs afv etilgan — xalqimizga xos bag'rikenglik va insonparvarlik, kechirimlilik va olijanoblik fazilatlarining yaqqol amaliy ifodasidir.

Kundalik hayotimizda sodir etilayotgan jinoiy xatti-harakatlar barchamizni ogohlikka undashi, ularning tub sabablarini o'rganib, oldini olish uchun davlat organlari, mahalla, xotin-

qizlar, nuroniyalar va yoshlar faollari, jamoatchilik tuzilmalari siyosiy-huquqiy, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tizimli ravishda tashkil etishlari hamda bahamjihat harakat qilishlari zarur.

Ta'kidlash joizki, o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan shaxslarni afv etish — bu alohida bir shaxsni kechirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, kelajakka umid ko'zi bilan boqayotgan bolajonlar taqdiriga, qalbi vayron bo'lib, jigarbandini kutayotgan ota-xon va onaxonlarga nisbatan Prezidentimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yuksak namunasidir.

Ana shunday muhim omillarni hisobga olib hamda xalqimizga xos bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev eng ulug' va eng aziz umummilliy bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligi e'lon qilinganining 28 yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdiqi sifatida "Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 23-bandiga asosan, sodir etgan

jinoiyat uchun jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 65 nafar fuqaro afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 17 nafari jazodan to'liq ozod qilindi, 13 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi, 20 nafariga esa tayinlangan jazo yengilroq'i bilan almashtirildi. Bir so'z bilan aytganda, 50 nafar shaxs ozodlikdan mahrum etish joylaridan ota-onasi, farzandlari va yaqinlari bag'riga qaytarildi.

Shuningdek, 14 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddati qisqartirildi va 1 nafar shaxs ozodlikni cheklash jazosidan ozod qilindi.

Afv etilganlarning 4 nafari ayollar, 1 nafari 60 yoshdan oshgan shaxs, 1 nafari chet el fuqarosi, shuningdek, 39 nafari taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan fuqarolar tashkil etadi.

Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida afv etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi, ularni foydali mehnatga jalb etish va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishiga ko'maklashish yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar hamda hokimliklarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA

Bir yilda 20 million soʻmdan koʻproq maosh oladigan oʻqituvchi 200 ming soʻmini yangi bilim olish uchun ajrata olmasa!

Obod taʼlim maskanlari

Bogʻlar quchogʻidagi maktab



(Davomi. Boshi 1-betda.)

— 2007-yili maktabga ishga kelgan imda atigi 6 dona daraxt bor edi, — deydi maktab direktori Jumanazar Qurbonov. — Maktabning umumiy yer maydoni 3,5 gektar. Dastlabki kunlardan mana shu katta yer maydonidan unumli foydalanishni maqsad qildim. 25 sotix yerga 150 tup tok, 20 sotix yerga yongʻoq, 20 sotix yerga esa olmaning turli navlari hamda nok koʻchatini oʻtqazdik. Bir necha yilda mevali daraxtlarimiz hosilga kirdi. Oʻsimliklar obod maskanda yaxshi eʼtibor bilan qaralsa, gurkirab oʻsar ekan. Bogʻimizning ilk mevalarini Mustaqillik bayrami tantanalari arafasida terib olishga muvaffaq boʻldik. Shuning uchun ham ushbu bogʻga “Mustaqillik bogʻi” deya nom berdik. Keyin “Ustozlar xiyoboni”ni tashkil etdik. Unga oʻquvchilarga saboq bergan birinchi oʻqituvchining byusti oʻrnatildi. Oʻsha davrlarda ishlagan oʻqituvchilarning nomlari marmarga oʻyib yozildi. Shu kunga qadar maktabda ishlab ketgan barcha oʻqituvchilarning suratlari bilan ham boyitildi. Bu xiyobonga kirgan inson hayotda oʻqituvchilarning oʻrni va ahamiyatini teran anglaganday boʻladi. Oʻquvchilarimizda ham oʻtgan ustozlarga hurmat hissi paydo boʻladi.

Davlatimiz rahbari chet tillarni oʻrganishga eʼtiborni kuchaytirgan bir paytda biz ham jarayondan chetda qolmaslik uchun “Filologlar bogʻi”ni tashkil etdik. Bu bogʻ oʻquvchilarga yangi bilimlar beradi, til oʻrganishga undaydi. Uni uch tilga asoslangan lugʻat tarzida tashkil etdik. Uchga boʻlingan bogʻda ona tili, ingliz va rus tili boʻlimlari mavjud. Har bir boʻlimda katta-katta bannerlarda turli mavzulardagi 1 600 ta yangi soʻz jamlangan. Bu oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, boʻlimlarda uch davlat ramzi va tarixiy shaxslari haqida ham maʼlumotlar joylashtirilgan. Shu bilan toʻxtab qolmadik,

bor imkoniyatlarni ishga solgan holda keyingi ishlarni rejalashtirdik. Yoshlar siyosati davlat darajasiga koʻtarilgan bir paytda maktabda “Yoshlar bogʻi”ni tashkil etdik. Eʼtiborli jihat, aynan mana shu bogʻda maktabimiz joylashgan Gʻurjib qishlogʻining ramziy maketi qoʻyildi. Tarixda mana shu qishloq aholi uchun himoya qoʻrgʻoni boʻlgan. Gʻurjib soʻzi, aslida, “girdi ob”, yaʼni “atrofi suv” degan maʼnoni anglatadi. Qadimda qishloq ahli dushmanidan suv vositasida himoyalangan. Tepalik ustidagi qishloq tasvirini kichik maket tarzida aks ettirish orqali bolalarda vatanparvarlik hissinu uygʻotish, tugʻilib oʻsgan qishlogʻi, ajdodlaridan faxrlanish tuygʻusini shakllantirishni maqsad qilganmiz. Unda qishloqning uchta darvozasi va suv keladigan buloqlari ham tasvirlangan. Sunʼiy yoʻl bilan suv ham oʻtkazganmiz. Qolaversa, oʻtgan yili oʻquvchilarni kitobga oshno etish maqsadida “Kitobsevarlar bogʻi”ni ham yaratdik. Kitob oʻqish uchun daraxtlar ostida oʻrindiqlik qoʻyildi. Kelgusida “Vatanparvarlar” va “Kichikintoylar” bogʻini tashkil etish niyatidamiz.

Maktab direktorining soʻzlarini eshitib, maktabdagi ishlarni koʻrib, uning ishbilarmon, tadbirkor, fidoyi, har taraflama qobiliyatli, jonkuyar inson ekaniga guvoh boʻldik. U soʻzlay turib, bir gapni yodga oldi. “Yaxshi kishidan uch narsa qoladi: yaxshi farzand, mustahkam imorat va obod bogʻ”. Ushbu jumalalar Jumanazar Qurbonovning hayotiy shioriga aylangan. “Bir kun harakatdan toʻxtasam, shu kun umrimni bekor oʻtdi, deb hisoblayman. Oʻquvchilarimiz bundan-da yaxshi sharoitlarda taʼlim olishga loyiq. Bilagimizda kuchimiz bor ekan, buning uchun tinimsiz harakat qilishimiz kerak”, deydi u.

Maktabda shuncha ishlar nimaning hisobiga bajarilganiga qiziqayotgandirsiz? Albatta, bu ishlar uchun yaxshigina mablagʻ kerak. Uzoqni koʻradigan, tad-

birkor rahbar maktabning har bir qarich yeridan unumli foydalanib, mevali va manzarali daraxtlar hisobiga qoʻshimcha mablagʻ topmoqda. Bundan tashqari, ota-onalar, mahalla fuqarolari, sobiq bitiruvchilar, tadbirkorlar homiyligida ham koʻplab ishlar amalga oshirilmoqda. Oʻtgan yili ota-onalar homiyligi asosida kam taʼminlangan oilalarning 16 nafar farzandi bepul ijara darsliklari bilan taʼminlandi. Yangi oʻquv yili arafasida homiylar soni bir qadar oshdi.

Ham bilimda, ham sportda peshqadam

37-maktab oʻquvchilari har jabhada faolligi bilan ajralib turadi. Har yili ushbu maktab oʻquvchilari tuman, viloyat, hatto respublika miqyosidagi fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvi va boshqa koʻrik-tanlovlarda ishtirok etadi. Masalan, 2017-yili 10-sinf oʻquvchisi Shohbek Mahmudov matematika fani boʻyicha Tailandda boʻlib oʻtgan xalqaro olimpiada gʻolibi boʻlib qaytdi. Hozir u Qarshi shahridagi 14-maktab oʻquvchisi Valijon Ahmadjonov bilan hamkorlikda matematika yoʻnalishida izlanish olib bormoqda. Mana shunday qobiliyatli oʻquvchilari borligidan maktab jamoasi doim faxrlanadi.

Shuningdek, muassasada barcha fan toʻgaraklari muntazam ishlamoqda. Bu toʻgaraklarga 400 dan ortiq oʻquvchi jalb qilinadi. Ayniqsa, tasviriy sanʼat, toʻqish, tikish, rasm kabi toʻgaraklardan oʻquvchilarning izi uzilmaydi. Shu bilan birga maktabda sport ishlari ham yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Xususan, tumanda boshqa hech bir maktabda boʻlmagan tennis maydonining poydevori yaqinda qurilib, deyarli tayyor holatga keltirildi. Bundan tashqari, tashqi sport maydonchasi, milliy sport oʻyinlari maydonchalari homiylilik yordami asosida ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda.

Sportning oʻquvchilar qiziqishi yuqori boʻlgan turlari: kurash, futbol, voleybol va boshqalar bilan 230 nafarga yaqin bola shugʻullanmoqda. Maktabda mana shu sport ishlarining samarali natijalariga koʻra, jismoniy tarbiya oʻqituvchisi Abdurasul Boʻriyev “Sogʻlom avlod” ordeni bilan taqdirlandi. Uning murabbiyligida kurash boʻyicha mashgʻulotlar oʻtagan Dilshod Choriyev Jahon chempioni, Yashnar Boʻriyev Osiyo chempioni, Muhriddin Tilavov ikki marta Oʻzbekiston chempioni hamda Maqsud Xoʻshimov va Otabek Kenjayev viloyat chempionligiga erishdi.

Taʼlim nashrlari — asosiy hamkorimiz

Ziyolilarning faoliyatini matbuot nashrlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu maktab oʻqituvchilari taʼlim nashrlari bilan hamnafas yashaydi. Eng qiziq jihat shundaki, jamoadagi pedagog-oʻqituvchilar “Maʼrifat” gazetasining haqiqiy ixlosmandlari sanaladi. 64 nafar oʻqituvchining teng yarmi oʻzi uchun alohida ushbu nashrga obuna boʻlgan. Gazetaning har bir sonini qoʻldan qoʻymay oʻqishadi.

— Maktabimiz pedagog xodimlari oʻz xohishlari bilan taʼlim nashrlariga obuna boʻlgan, — deydi maktab direktori. — Bir yilda 20 million soʻmdan koʻproq miqdorda maosh oladigan oʻqituvchi nahotki shundan atigi 200 ming soʻmini oʻqish, yangi bilim olish uchun ajrata olmasa! Bunday oʻqituvchilardan nimani kutishimiz mumkin, axir. Mana shunday oʻqituvchilar borligidan kuyunaman.

Bundan tashqari, pedagoglar oʻz fanlari doirasidagi turli metodik qoʻllanmalarni ham doim kuzatib borishadi va amaliyotda unumli foydalanishadi. Maktab kutubxonasida turli koʻngilochar nashrlar va sohaga oid jurnallarini ham uchratasiz. Oʻtgan yil mobaynida oʻqituvchilarda obuna madaniyati ancha susayib ketganiga guvoh boʻlgan edik. Ammo 37-maktab jamoasini koʻrib, “uygʻoq” muallimlarimiz hali bisyor ekaniga yana bir bor amin boʻldik.

— Taʼlim muassasamizda kadrlar masalasiga ham qatʼiy qaraladi. Jamoamiz har taraflama havas qiladigan pedagog kadrlardan iborat. Eng muhimi, jipslik, uyushqoqlik bilan ishlab kelmokdamiz, — deydi direktor oʻrinbosari Mavluda Qurbonova. — 60 nafar oʻqituvchimizning 10 nafari oʻrta maxsus maʼlumotli edi. Oʻtgan yili 5 nafar oʻqituvchi maxsus sirtqi boʻlimga oʻqishga kirdi. Qolgan 5 nafari ham joriy yilda hujjat topshirdi. Pedagog xodimlar ichida “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi aʼlochisi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlanganlar ham koʻpchilikni tashkil etadi. Shuningdek, maktabimizda ustoz-shogird anʼanasi yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Ilgʻor tajribaga ega oʻqituvchilarga 9 nafardan yosh oʻqituvchi birlashtirib qoʻyilgan. Yoshlar mahoratli, koʻp yillik tajribaga ega ustozlardan mahorat sirlarini oʻrganib borishadi. PISA xalqaro baholash dasturiga tayyorlash boʻyicha tuman tayanch maktabi sifatida tavsiya etildik. Hozir mana shu jarayonlarga qizgʻin tayyorgarlik koʻrilmoqda.

(Davomi 16-betda.)

5 ta muhim tashabbus doirasida maktabga musiqa asboblari va sport anjomlari berildi

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tuman hokimligi va "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi hamkorligida tashkil etilgan tadbir tuman markazidagi "Motamsaro ona" haykali hamda davlat va jamoat arbobi, atoqli adib Sharof Rashidov byusti poyiga gullar qo'yish bilan boshlandi.

Tadbir doirasida Uchtepa shaharchasida "Kitob olami" do'konining tan-tanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Kitob do'koni shu yerda faoliyat ko'rsatayotgan tuman "Elektron xalq kutubxonasi" yonida ochilgani kutubxonalarga katta qulaylik yaratdi. Tadbir ishtirokchilari kitoblarni ko'rgazmasi, "Elektron xalq kutubxonasi" faoliyati bilan tanishdi.

Tumanning "Toshkentli" mahallasida yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan badiiy-ma'rifiy kecha tashkil etildi.

Tadbirida tumanda yashab o'tgan

fidoyi insonlar xotirasiga bag'ishlab chop etilgan "Qalblarda yashayotgan odamlar" xotira kitobining taqdimoti o'tkazildi. Unda so'z olganlar ushbu tumanda tug'ilib, yetishib chiqqan Sharof Rashidov, Hamid Olimjon, xalq hofizi Orifxon Hotamov, mashhur paxtakor Hamroqul Nosirov, Zokir Normatov va boshqa taniqli kishilar hayoti haqida ushbu kitobning yaratilishi xayrli ish bo'lganini qayd etdi.

Kechada xotira kitobiga kiritilgan shoirlarning she'rlaridan namunalar o'qildi, bastakorlarning kuy va qo'shiqlari ijro etildi. Kitobdagi qahramonlarning farzandlari, jamoatchilik vakillari ular haqidagi xotiralarni yodga oldi.

— Xotira to'plamining chop etilishi samarali mehnati, ilmiy, ijodiy, jamoatchilik faoliyati bilan xalqimiz yodida mangu qolgan insonlar xotirasiga elimizning hurmati ifodasi bo'ldi,

— deydi O'zbekiston qahramoni Marat Zokirov. — Kitob faqat xotiragina emas, yoshlarning vatanimiz tarixi, otalarimiz hayotini o'rganishda ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida tumanning 4 ta sektorida tashkil etilgan tayanch umumta'lim maktablariga tuman hokimligi va homiylar tomonidan musiqa asboblari, sport anjomlari topshirildi.

Taniqli san'atkorlar, tumandagi umumta'lim maktablarining badiiy havaskorlik jamoalari, jumladan, besh tashabbus asosida tashkil etilgan tuman dutorchi qizlar ansamblining konsert dasturi namoyish etildi.

Tadbir tuman bo'ylab ekskursiya bilan yakunlandi. Poytaxt va boshqa viloyatlardan kelgan mehmonlar tumanning diqqatga sazovor joylarida bo'lib, keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

T.BEKNAZAROV,
O'ZA muxbiri



Bahs-munozaraga boy seminar

Uchtepa tumanidagi 287-maktabda tumandagi ta'lim muassasalari pedagoglari ishtirokida an'anaviy avgust kengashi o'tkazildi.

Yangi o'quv yili oldidan eng muhim va ustuvor vazifalarni belgilab olish, ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-murabbiylar kasbiy salohiyatini oshirish, samarali mehnat qilayotgan pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan tadbirida maktab rahbarlari, ularning o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, metodbirlashmalar rahbarlari qatnashdi.

— 13 yonalish bo'yicha 40 dan ziyod shobada dolzarb mavzularda mutaxassislar interfaol usulda trening tashkil etib, ta'lim tizimidagi yangiliklar, Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nu-fuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektorda belgilab berilgan vazifalar xususida batafsil ma'lumot berildi, — deydi TXTB mudiri o'rinbosari Umida Muslimova. — Ta'lim muassasalari rahbarlarining vazifasi, pedagoglarning o'z ishini sidqidildan bajarishi kabi dolzarb masalalar yuzasidan olib borilgan bahs-munozaralar seminarining qiziqarli, ochiq va samarali o'tishini ta'minladi.

Xurshidabonu OSTONOVA,
XTB tabiiy fanlar metodisti

"Jonimizga ora kirayotgan nashr"

Keyingi yillarda ta'limga ixtisoslashgan gazeta-jurnallar keksa-yu yosh orasida, hatto eng uzoq manzillarda tobora qo'lma-qo'l o'qilayotgani, intiqlik bilan kutilayotgani kishini quvontiradi.

Farg'ona tumanidagi 1-maktab ancha olis, ya'ni Qirg'iziston bilan chegaradosh hududda joylashganiga qaramay, pedagoglar ta'lim nashrlarining har bir soniga mushtok. Dang'ara tumanidagi 35-maktabning geografiya fani o'qituvchisi Ibrohim Abdullayev nafaqada bo'lsa-da, o'z ustida ishlash, sohadagi muhim yangiliklarni kuzatib borishdan charchamaydi. Bu borada "Ma'rifat" uning eng yaqin ko'makchisi. Aks holda, bu kabi ustozlar tahririyat tanlovlarida g'olib bo'lib, pul mukofoti va faxriy yorliq bilan taqdirlanarmidi?!

Farg'ona viloyati xalq ta'limi boshqarmasida o'tkazilgan ijodiy uchrashuvda "Ma'rifat" — "Учитель Узбекистана" gazetalari tahririyatining "Fashning eng yaxshi ijodkori" hamda "Boshlang'ich ta'lim" jurnali tahririyatining "Mahorat" tanlovida g'olib bo'lgan bir guruh pedagoglar taqdirlandi. Unda so'z chiqqan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Bobosodiq Latipov davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatda o'qituvchilarning obro'si va maqomini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Xususan, pedagoglarning majburiy mehnat va o'z faoliyatiga daxldor bo'lmagan vazifalarni bajarishiga chek qo'yilgani ta'lim sifatiga sezilarli hissa qo'shishi qayd etildi.

— Internet va ijtimoiy tarmoqlar qanchalik taraqqiy etmasin, biz uchun ta'lim nashrlarining o'rni, roli yo'qolmaydi, — deydi O'zbekiston tumanidagi 65-IDUMning matematika fani o'qituvchisi Isroil Tillaboyev. — Chunki global, lokal tarmoqda tarqalayotgan axborotni oradan vaqt o'tib topish dushvor. Ikkinchidan, o'sha axborotning asossiz, yolg'on yoki soxta ekanini uchun javobgarlikni hech kim zimmasiga olmaydi. Shunday vaziyatda yurtimizdagi markaziy ta'lim nashrlari ustoz-muallimlarning e'tiborini qozonib, ta'bir joiz bo'lsa, joniga ora kirayapti. Kezi kelganda, o'qituvchilarning bir-biriga aytar so'zi yoki an'adan beri o'ylantirgan savoliga javobni topayapti. "Ma'rifat" — mening uzoq yillik hamkorim, qadrdonim. "Bizga ilm skautlari kerak!" sarlavhali maqolam tahririyat tanlovining "Pedagog-muallifning eng dolzarb materiali" nominatsiyasi g'olibligiga munosib ko'rilganidan bunihiyo xursandman.

Dilshod RO'ZIQULOV

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



4,5 soat davom etgan videoselektorda 22 yillik pedagogik faoliyatim ko'z o'ngimdan o'tdi va shu yillar davomida qilgan ishlarimning birortasidan qoniqmadim. Bitta holatdan juda uyaldim. Prezidentimiz bizdan qayta-qayta so'rayotgan vazifalarni allaqachon bajarishimiz kerak edi. Mana shundan vijdonim qiynaldi. O'zimga maqsad qilib qo'ydim: endi boshqacha — yonib ishlash kerak, yonmaganlarni esa yondirish, uyg'otish kerak, vijdonni uyg'otish kerak!

Dilnoza AHMEDOVA

Biz Toshkent shahridan uncha uzoqda emasmiz. Ammo gazetalarni vaqtida kelmaydi. Kamida bir haftadan keyin olamiz. Shu orada ayrim sonlari yo'q bo'lib qoladi. Balki obunaning keskin kamayishiga shunday holatlar ham sabab bo'layotgandir. Bunga qaramay, obuna mavsumida faoliyatimda juda zarur bo'lgan "Ma'rifat" gazetasi va boshqa jurnallarga obuna bo'laman. Boshqa hamkasblarimni ham shunga chaqiraman. Kitob va gazetalarning o'rini eng kuchli ijtimoiy tarmoq ham bosolmaydi.

Difuza SUVONOVA

Yangi o'quv yilida obuna sofiga erishishni o'z oldimizga maqsad qildik. Har doim, hamma narsaga halol yo'l bilan erishish yuqori natija bergan. Maktabimizga gazeta o'z vaqtida keladi, bundan xursandmiz.

Mohira CHORIYEVA

O'tgan o'quv yilida o'qituvchilik faoliyatimni boshladim. Menga 5-sinf berildi. 4 yillik boshlang'ich ta'limdan so'ng bolalar mendan begonasirashdi. Asta-sekin bir-birimizga o'rgandik. Ammo sinf rahbarlikning mas'uliyati yuqori bo'lishini tushundim. Ko'zyosh to'kkan kunlarim ham bo'ldi. Bolalarni o'z farzandimdek yaxshi ko'rib, mehr berdim. O'qituvchi va murabbiylar kuni bayramida o'quvchilarni kelib meni quchib tabriklashdi. G'alati tuyg'uni his qildim. Hamma charchoqlarim chiqib, ularni yanayam yaxshi ko'rib qoldim. Mana bu yil ta'tilda bolalar sog'indik, deb maktabga kelib ketishdi... Tushunib yetdimki, ularga ilm bilan birga mehr berish kerak.

Madina BAXSHILLOYEVA

Avgust kengashlarini navbatdagi rasmiyatchiliklardan biri deb hisoblayman. Ba'zan nima-ga borib kelganingni bilmaysan. Agar kengashlarda ko'tarilgan masalalar faqat qog'ozda emas, haqiqatan ham muhokama qilinib, yangi o'quv yili uchun istiqbolli rejalar tuzilsa, o'qituvchilarda hech qanday norozilik bo'lmaydi.

Lobar YOQUBOVA

Tumanlar tajribasi

“Izlanganga omad yor”

Peshku tuman xalq ta'lim bo'limi ayni shu shior ostida faoliyat yuritadi. Mazkur tumanda o'quvchilarning bilim sifati va pedagoglarning salohiyatini oshirish borasida o'ziga xos tajribalar mavjud. Shulardan biri tuman maktablarida “O'qituvchi reytingi”ning yuritilayotganidir.

— O'qituvchining bilimi, mahoratini to'g'ri, xolisona baholash ta'lim sifat-samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Maktablarda o'qituvchilar reyting ko'rsatkichlarini aniqlash tizimining joriy etilishi ularning har birini bilim darajasi, kasbiy mahorat va salohiyatiga qarab alohida-alohida baholash hamda reytingdagi o'zini aniqlash imkoniyatini yaratmoqda, — deydi xalq ta'limi bo'limi ta'lim sifati monitoringi bo'limi bosh inspektor-metodisti Zikr To'xtayev. — O'qituvchilarning reyting ko'rsatkichlarini aniqlash 20 ta mezon bo'yicha amalga oshirilib, har bir ko'rsatkich maksimal 100 balldan baholalanadi. Ko'rsatkichlar bo'yicha ballarning umumiy yig'indisi o'qituvchiga tegishli ko'rsatkichlar soniga bo'linib, o'rtacha ball aniqlanadi. Ko'rsatkichlarida, asosan, bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalarida o'quvchilarning ishtiroki va “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi”, “Eng yaxshi dars ishlamasi” ko'rik-tanlovlaridagi natijalariga alohida ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, dars jarayonida AKTDan foydalanishi va kompyuter savodxonligi, metodbirlashma yig'ilishlarida metodik ma'ruzalar, tavsiyalar, takliflar tayyorlaganligi, ish tajribasining tuman, viloyat yoki respublika miqyosida omamallashtirilganligi ham inobatga olinadi.

Ta'lim sifatini oshirishning yana bir muhim omili — bu o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirishdir. O'quvchi uchun murakkab va tushunarsiz sanalagan mavzu yoki fan toki uning yoshi va imkoniyatlariga moslashtirilmas ekan, hech qachon to'la o'zlashtirilmaydi. Ayni shu sabablardan kelib chiqqan holda tuman maktablarida “O'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni hisobga olish va to'ldirish jurnali”ni yuritish ham yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida o'quvchilar o'zlashtirishidagi kemtikliklar to'la aniqlanib, ularni o'z vaqtida bartaraf etish imkoniyati yaratilmoqda. Mazkur jurnal bir o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlar o'quvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan holda fanlar

kesimida ajratilgan sahifalarda o'zlashtirilmagan mavzular va sanasi qayd etilib, uni to'ldirish muddatlar belgilanadi. Bundan tashqari, jurnal sahifasida “Bo'shliqlarni to'ldirish borasidagi erishilgan natijalar” qatori bo'lib, unda “o'zlashtirdi”, “o'zlashtirmadi” degan xulosalardan biri yoziladi. Aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishning dastlabki chora-tadbirlari (qo'shimcha mashg'ulot, individual topshiriqlar) o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, “o'zlashtirmadi”, deb xulosalangan o'quvchilar ro'yxati va o'zlashtirilmagan mavzular haqida maktabning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga hisobot berib boriladi. Maktabda ayrim mavzularni qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ro'yxati shakllantirilib, fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktab rahbariyati murojaati asosida ota-onalar bilan hamkorlikda chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Joriy, oraliq nazoratlar, ichki va tashqi nazorat jarayonida va fan olimpiadalarida hamda bilimlar bellashuvi natijalari asosida o'quvchilar bilimida aniqlangan omamaviy bo'shliqlarni to'ldirish qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish orqali yuqorida tavsiya etilgan jurnaldan foydalangan holda maktab ma'muriyati tomonidan sinflar va fanlar kesimidagi tasdiqlangan jadval asosida amalga oshiriladi.

Dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shakli hisoblanadi. Shuning uchun asosiy e'tibor, dars ishlamasi(konspekti)ni sifatli, mazmunli, davr talabiga mos ravishda tayyorlashga va undan unumli, samarali foydalanishga qaratilishi lozim. Dars mashg'ulotlari ishlamasi(konspekti)ni shakllan va mazmunan zamonaviy talablarga mos tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish vazifalaridan kelib chiqqan holda bir soatlik dars ishlamasi-ni tayyorlash tartibi bo'yicha metodik tavsiya ishlab chiqildi. Ayni paytda o'qituvchilarimiz ana shu tavsiya asosida dars ishlanmalarini tayyorlashmoqda. Unda darsning har bir qismini samarali tashkil etishga alohida ahamiyat qaratiladi. Masalan, darsning natijasi bo'yicha o'quvchilarni baholash bosqichida uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda ol-

dingi mavzu yuzasidan va yangi mavzu bo'yicha o'tkazilgan nazorat(og'zaki so'rov, yozma, tarqatma materiallar)da o'quvchilarning familiyasi va ismi ko'rsatilgan holda baholanadi. Dars ishlamasi(konspekti)da qo'yilgan baho bilan sinf jumalida qo'yilgan baholar bir xil bo'lishi kerak. Dars samaradorligini yanada oshirish bo'yicha topshiriqlar va ularning natijasi bosqichida dars jarayonida oldingi o'tilgan mavzuni va yangi mavzuni o'zlashtirmagan o'quvchilar ro'yxati tuziladi. Darsning tashkiliy qisminidan oldingi mavzular bo'yicha o'tkazilgan so'rovlarda javob bera olmagan va topshiriqlarni bajara olmagan hamda yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida savol-topshiriqlarga javob bera olmagan o'quvchilar aniqlanib, o'zlashtirilmagan mavzusi, ma'lumotlari, elementlari kiritilib, reja jadval asosida to'garak mashg'ulotlarida ularni to'ldirish bo'yicha qo'shimcha uyga berilgan topshiriqlar asosida ular bilan individual ish olib boriladi. Shuningdek, darsda sababli yoki sababsiz qatnashmagan o'quvchilarning ro'yxati ham aniqlanib, ularga reja jadval asosida to'garak mashg'ulotlarida mavzu bo'yicha individual topshiriqlar berilib natijasi baholanadi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ham xuddi shu yo'sinda ishlanadi.

Mazkur tadbirlar natijalariga ko'ra, o'quvchilar tomonidan omamaviy ravishda o'zlashtirilmagan mavzularning sinflar va fanlar kesimidagi ro'yxati shakllantirilib boriladi. Aytish joizki, o'tgan o'quv yilida 9—11-sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan 280 ta mavzu bo'yicha omamaviy bo'shliqlar aniqlandi. Ana shu bo'shliqlar asosida bo'lim metodistlari tomonidan kerakli tavsiyalar ishlab chiqilib, o'z vaqtida maktablarga yetkazildi. Qolaversa, maktablarda repetitorlik faoliyatini olib borayotgan o'qituvchilar bilan ham bu borada yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Repetitor o'qituvchilar individual tarzda olib borayotgan mashg'ulotlarida ham mazkur bo'shliqlarni to'ldirishga alohida ahamiyat qaratishadi. Bu borada 4-IDUMda faoliyat yuritayotgan pedagoglar Jahongir Abdurashidov, Umidjon Tillayev, 9-IDUM o'qituvchisi Mustafob Boboyev, 4-maktab o'qituvchisi Aziza Vafoyeva, 28-maktab o'qituvchisi Zebniso Bozorovalarning ishlari tahsimga sazovor.

Iroda ORIPOVA,
“Ma'rifat” muxbiri

Samarqand tumani xalq ta'limi bo'limi tizimida 55 ta ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim o'zbek, tojik va rus tillarida olib boriladi. 2019-2020-o'quv yili, Mustaqillik bayrami hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha maktablarda qanday ishlar amalga oshirilyapti? Bu haqda tuman XTB mudiri va bir necha ta'lim muassasalari rahbarlari bilan suhbatlashdik.

Samarqand tumanidagi maktablar o'quv yiliga shay

Bahriddin MARDONOV,
tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri:

— Hozirgi kunda maktablarmizda o'quvchi-yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, yetuk kadrlar bo'lib yetishishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Maktablarning moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlanmoqda.

Tumanimiz maktablarida ta'til davomida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbus ijrosi bo'yicha bir qator ishlar olib borildi. Jumladan, tasdiqlangan jadval asosida informatika, rus tili, ingliz tili, ona tili va adabiyot, kimyo, biologiya, fizika, matematika kabi fanlardan to'garaklar tashkil qilindi. O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Ta'til davomida maktablar kutubxonalarning to'liq faoliyat ko'rsatishiga erishildi.

26- va 38-umumta'lim maktablarida kapital rekonstruksiya ishlari davom ettirildi. 2019-yil investitsiya dasturiga kiritilgan bu ikki maktab kapital ta'miri uchun 5,2 milliard so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Boshqa o'quv dargohlarida esa ta'mirlash ishlari sifatli amalga oshirilib, yangi o'quv yiliga puxta hozirlik ko'rib qo'yildi.

Ta'lim muassasalari yangi o'quv yilida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish borasida o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yishgan.

Mamlakat RAVSHANOVA,
33-umumta'lim maktabi direktori:

— Ta'lim dargohimizda 1268 nafar o'quvchi bo'lib, ularga 84 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. O'qituvchilarning 6 nafari oliy, 12 nafari birinchi, 33 nafari ikkinchi toifali hamda 33 nafari mutaxassislar hisoblanadi. Bu yil maktabga keladigan 159 nafar 1-sinf o'quvchilari uchun Prezident sovg'alarga buyurtma berildi, darsliklar to'liq olindi. Ta'til davrida maktab hududini obodonlashtirish bo'yicha kuzatuv kengashi hamkorligida bir qator ishlar bajarildi. Xususan, 3 000 m² yo'laklarga beton qoplamalari yotqizildi, 9 ta maydani maydonchalar va gulxonalar tashkil qilindi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari Mayram Husenova

va Mamlakat Murodovlar rahbarligida mavjud 9 ta uslubiy birlashma a'zolari ayni kunlarda yangi o'quv yiliga qizg'in tayyorgarlik ishlari olib bormoqda. Mazkur o'quv yilida 3-, 4-, 8-, 9-sinflarning darsliklari yangilanayotganligi sababli o'qituvchilar taqvim-mavzu rejalarni qaytadan ko'rib chiqishyapti, mavzular asosida ko'rgazmali va tarqatma materiallar, testlar bankini yaratishmoqda.

O'qituvchilarning o'z ustida ishlashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Informatika xonasidagi kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan bo'lib, o'qituvchilar o'zlariga kerakli bo'lgan fan yangiliklari, uslubiy qo'llanmalar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Kompyuterlar xotirasiga barcha fanlardan 180 dan ziyod elektron darslik va multimediali dars ishlanmalari yuklangan. 2021-yildan boshlab O'zbekiston PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi munosabati bilan yangi o'quv yiliga qadar barcha pedagog-xodimlarning ushbu tadqiqotlar yuzasidan malakasini oshirish bo'yicha maktabda 10 kunlik o'quv-seminar o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Nilufar MAJIDOVA,
40-umumta'lim maktabi direktori:

— Maktabimizda 673 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi. 2019-2020-o'quv yili uchun bilim dargohimizda ta'mirlash ishlari sifatli amalga oshirildi. Sinfxonalar, kompyuter xonalari, multimedia va laboratoriya xonalari yangi o'quv yiliga shay qilib qo'yildi. Mustaqilligimizning 28 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

O'tgan o'quv yilida o'quvchilarning bir qator yutuqlarga erishdi. Masalan 11-“A” sinf o'quvchilari Sabrina Nabiyeva o'zbek tili va adabiyoti, Feruza Rustamova tojik tili fanidan viloyat olimpiadasida birinchi o'rinni egallab, respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Maktabimiz homiysi, tadbirkor Baxtiyor Odilov bizga katta ko'mak berib kelayapti. U kishining sa'y-harakati tufayli sport maydonchasi va yana bir qator joylar ta'mirlandi. Yangi o'quv yilida faollar zali ishga tushiriladi.

Abdurasul SATTOROV

Tarixda iz qoldirmoqchi bo'lsang – kitob o'qi!

XXI asr texnologiya asri deb bejiz aytilmaydi, kundan kun rivojlanib borayotgan texnologiyalar biz uchun oddiy va odatiy hisoblangan buyumlarni ham noodatiy ko'rinishga keltirmoqda: telefon o'rinda foydalansa bo'ladigan oyoq kiyimlaridan tortib to sensorli dazmollargacha bu asrning rosmi texnologiya asri ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay bir narsa o'zgarmay qoladi: kitob o'qish!

Nima uchun kitob? Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnologiyalar asrida kitobga o'rin bormi? Bundan tashqari, hozirda ko'plab ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlar birinchi bo'lib elektron tarzda taqdim etilmoqda va birgina kaftdek keluvchi smartfon yuzlab, boringki minglab va hatto millionlab kitoblarni o'zida saqlashi va foydalanuvchiga ularni istalgan vaqtda o'qish imkonini berishi mumkin. Shunda ham bu asrda kitobga o'rin bormikan? Javobim — ha!

Kitob xuddi nonga o'xshaydi, kompyuter va telefonlar esa tortga. Hech bir odam hech qachon nongan bezimaydi, tort esa ikki bo'lakdan so'ng me'dangga tegadi.

Qo'lingizdagi smartfonda qancha ko'p elektron kitob bo'lmasin, u hech qachon oddiy kitob o'rini bosolmaydi. Sizni quruq oldi-qochdi gaplar bilan bezdirmayman, o'rninga esa qo'lingizdagi smartfonlar haqida qiziq ma'lumotlarni keltiram:

1. Smartfon 1 yil ichida shuncha ko'p zararli modda yig'adiki, buncha modda hatto hojatxonada ham yo'q!
2. Telefon va kompyuter o'z joniga qasd qilish ehti-molini kamida 2 marta oshiradi!
3. Smartfoningizda oddiy parolni yechish uchun sarf etadigan kunlik vaqtiniz kamida 1 bet maqolani o'qish-ga sarf bo'ladigan vaqtga teng!
4. Hozir yoshlarning tez-tez asabiylashishiga sabablardan biri ularning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmlari "like" yig'a olmasligidir!
5. Qorong'ida yorqin ekranga termulib o'tirish 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar orasida ko'rish zaif-lashuviga asosiy sabab bo'lmoqda.

6. Yoshlarda uyqusizlikning asosiy sababi ularning ij-timoiy tarmoqlar va messenjerlar(telegram, whatsapp va b.)da yozgan gaplariga izoh kutib o'tirishlaridir.

7. Kuniga 3 soatdan ziyod smartfondan foydalanish bo'yin va bel osteoxondroziga sabab bo'ladi.

8. Odam ijtimoiy tarmoqlar orqali bildirilgan arzimas yomon fikrdan og'ir jismoniy mashg'ulotdagi kabi ruhiy zo'riqish oladi.

9. Doimiy ravishda telefonni olib yurish yoki uzoq vaqt kompyuterda o'tirish yurakka zaruriy moddalarni tashuvchi qondagi gemoglobinni kamaytiradi. Bu esa yurakning ishdan chiqishiga olib keladi!

10. Odamlarning telefon tufayli chiqaradigan janjali irqchilik yoki millatchilik tufayli kelib chiqadigan janja-lidan ham ko'proq uchraydi!

Qaysi biri yaxshiroq — oddiy kitob yoki elektron ki-tob? Hozir ko'pchilik yoshlar kitoblarning skaner qilin-gan yoki maxsus dasturdagi variantini o'qishni afzal ko'rishlarini bildirishadi. Chunki ularni istalgan vaqtda o'qish imkoniyati, bir vaqtda ko'plab kitoblarni hech qanday og'irliksiz olib yurish imkonligi juda katta qulaylik yaratadi. Shunga qaramay smartfon, kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali kitob o'qish kutilganidek aqliy samara bermaydi.

Oddiy kitob o'qish asablarni tinchlantiradi, diqqatni jamlashga yordam beradi, insonda qiziqish tuyg'usini oshiradi, aqliy rivojlanishni tezlashtiradi. U o'zidan ko'zni charchatuvchi yorqin nur chiqarmasligi, zararli to'liqlar tarqatmasligi, elektr quvvati talab qilmasligi va turli SMSlar bilan sizni chalg'itmasligi hisobiga o'zidagi bilimlarni sizga yengilroq o'rganishingiz uchun yordam beradi.

Stiv Jobs, Bill Geyts, Mark Sukerberg kabi dunyo tanigan IT sohasi bo'yicha gigant kompaniya egalari ham o'z-o'zidan boy bo'lib qolmagan. Ular siz kabi barcha bilimlarini kompyuter yoki internetdan olmagan, ular-ni hammasi kitob bilan do'stlashgan. Ha-ha, aynan oddiy kitob hisobiga ular o'zlarining hozirgi muvaffaqi-yatlariga erishganlar.

Bill Geyts har yilning boshida o'tgan yili shaxsan o'zi o'qib chiqqan kitoblar nomini aytadi va unga havas qiluv-chilarga ham shu kitoblarni o'qib chiqishni taklif qiladi.

Qaysi biri yaxshiroq — oddiy kitob yoki elektron kitob? Hozir ko'pchilik yoshlar kitoblarning skaner qilingan yoki maxsus dasturdagi variantini o'qishni afzal ko'rishlarini bildirishadi. Chunki ularni istalgan vaqtda o'qish imkoniyati, bir vaqtda ko'plab kitoblarni hech qanday og'irliksiz olib yurish imkonligi juda katta qulaylik yaratadi. Shunga qaramay smartfon, kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali kitob o'qish kutilga-nidek aqliy samara bermaydi.

"Facebook" asoschisi Mark Sukerberg ham dunyo-ni eng boy odamlaridan biri bo'lishi hamda eng zamonaviy kompyuterlarga ega bo'lishiga qaramay, oddi-y kitoblarni o'qiydi. Uning ofisidan olingan rasm shuni ko'rsatadiki, boy bo'lish izlanishni to'xtatish kerak, degani emas, aksincha, avvalgidan-da ko'proq izlanish va o'qish kerak.

Eng rivojlangan va dunyoga mashhur ta'lim muassa-salari — Harvard yoki Oksford universiteti talabalari ham oddiy kitoblarni o'qishni xush ko'rishadi. Ular kutubxonalarda soatlab vaqlarini kitob o'qish bilan o'tkazishadi. Kitob ularni kamolotga erishtiruvchi eng ishonchli vosita ekanligiga ishonishadi.

Shuni unitmangki, inson harf yozishni boshlaganidan beri kitob mavjud bo'lib kelgan. Aynan o'qish va yozish insonning rivojlanishida eng katta vosita bo'lgan. Aziz do'stim, agar sen ham tarixda iz qoldirishni istagan mash-hur shaxs bo'lmoqchi bo'lsang kitob o'qi! Zero, tarixda iz qoldirgan odamlarning bari kitobni eng yaqin do'sti deb biladi.

Saodat ISMATOVA,
Respublika bolalar kutubxonasining
axborot-resurs markazlariga
uslubiy yordam ko'rsatish bo'limining
1-darajali kutubxonachisi

Sinab ko'ring

Sonni darajaga ko'targanda necha bilan tugaydi?

Umumta'lim maktablari darslik-majmualarida sonlarning 2, 3, 5, 9 va 10 ga bo'linish alomatlari, karralilar haqida ma'lumotlar berilgan. Sonlarni darajaga ko'targanda qaysi raqam bilan tugashiga bog'liq ma'lumotlar matematika dasturlarida keltirilmagan. Biroq oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarida "1993¹⁹⁹⁴ soni qaysi raqam bilan tugaydi?" kabi savollar uchrab turadi.

Matematikada 0 dan 9 gacha bo'lgan raqam bilan ixtiyoriy sonni yozish mumkin. Mana shu 10 ta raqam bilan tugaydigan sonlarni darajaga ko'targanda qaysi raqam bilan tugashini aniqlaymiz. Oldin 10 ta raqam orasida 0, 1, 5, 6 raqamlari bilan tugaydigan sonlarni darajaga ko'targanda qaysi raqam bilan tugaganini aniqlaymiz. Mana shu to'rtta raqam bilan tugaydigan har qanday sonni darajaga ko'targanda shu raqamlar bilan tugaydi. Oxirgi raqami 0 bilan tugaydigan sonni ixtiyoriy darajaga ko'targanda oxiri 0 bilan tugaydigan son hosil bo'ladi. Oxirgi raqami 1 bilan tugaydigan sonni ixtiyoriy darajaga ko'targanda, oxirgi raqami 1 ga teng son hosil bo'ladi.

Misol uchun, 1991²⁰⁰¹ soni qaysi raqam bilan tugashini ko'raylik.

Bu son oxiri 1 raqami bilan tugaydi.

Oxirgi raqami 5 bilan tugaydigan sonni ixtiyoriy darajaga ko'targanda oxirgi raqami 5 ga teng son hosil bo'ladi.

Yuqoridagi to'rtta raqam bilan tugaydigan sonni darajaga ko'targanda oxiri shu raqamlar bilan tugaydigan son hosil bo'ladi. Bunday sonlar darajaga ko'targanda takrorlanish davri 1 ga teng bo'lgan sonlar deyiladi. Endi takrorlanish davri 2 ga teng bo'lgan sonlar haqida fikr yuritamiz. Takrorlanish davri 2 ga teng bo'lgan sonlar oxirgi raqami 4 va 9 ga teng bo'lgan sonlardir. Bu ikki raqam bilan tugaydigan sonlarni toq darajaga ko'targanda oxiri shu raqamlar bi-

lan tugaydigan sonlar hosil bo'ladi. Juft darajaga ko'targanda shu raqamlar kvad-ratining oxirgi raqamiga teng son hosil bo'ladi.

Misol: 2004²⁰⁰⁵ soni oxiri 4 raqami bilan tugaydi, chunki daraja toq sondan iborat.

2004²⁰⁰⁸ soni oxiri 6 raqami bilan tugaydi, chunki daraja juft sondan iborat.

2 ni darajaga ko'targanda qaysi raqam bilan tugashini bilish uchun sonning darajasini 4 ga bo'lamiz. Agar qoldiq 1 bo'lsa, 2 bilan tugaydi. Agar qoldiq 2 bo'lsa, 4 bilan tugaydi. Agar qoldiq 3 bo'lsa, 8 bilan tugaydi. Agar qoldiqsiz bo'linsa, 6 bilan tugaydi.

Misol: 2012²⁰⁰⁷ soni qaysi raqam bilan tugaydi?

Ushbu sonni bilish uchun 2007 ni 4 ga bo'lamiz.

2007=501+4+3

Qoldiq 3 ga teng. Takrorlanish davri-ni 3-o'rinda 8 turibdi. Demak, berilgan son 8 bilan tugaydi. Agar sonning oxirgi raqami 3 dan iborat bo'lsa, uni ixtiyoriy

darajaga ko'targanda tartib bilan 3, 9, 7, 1 bilan tugashi mumkin. Darajaga ko'tar-ganda shu to'rtta son tartib bilan takror-lanaveradi.

Misol: 1993¹⁹⁹⁴ soni qaysi raqam bi-lan tugaydi?

Ushbuni topish uchun 1994 ni 4 ga bo'lamiz.

1994=448+4+2

Qoldiq — 2. Takrorlanish davridagi ikkinchi songa qaraymiz, u yerda 9 soni turibdi. Demak, berilgan son 9 bilan tu-gaydi.

Agar sonning oxirgi raqami 7 bo'lsa, ixtiyoriy darajaga ko'targanda tartib bi-lan oxiri 7, 9, 3, 1 bilan tugaydigan son hosil bo'ladi.

Misol: 2017²⁰¹³ soni qaysi raqam bi-lan tugaydi?

Ushbuni topish uchun ham darajani 4 ga bo'lamiz.

2013=504+3+1

Qoldiq — 1. Takrorlanish davrining birinchi o'rinda 7 turibdi. Demak, beril-gan son 7 bilan tugaydi.

O'quvchilar har qanday katta darajali son qaysi raqam bilan tugashini aniqlay olish imkoniyatiga ega. Faqat bu haqda dastur va qo'llanmalar yetarli miqdorda chop etilib, matematika mashg'ulotlari-da puxta o'rgatilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Adash AHMEDOV,
Urgut tumanidagi
8-maktab o'qituvchisi

Istiqlol — imkoniyat

Yosh olimlar yangi uyda

Qozoq xalqida bir maqol bor: dushmaning yerida bo'lsa ham, uying bo'lsin. Bu gapning haqiqatligini ijarama-ijara ko'chib yurganlar yaxshi anglaydi. Ayniqsa, ilm qilaman, fan bilan shug'ullanaman degan tadqiqotchi uchun kutilmaganda boshqa uy topish muammosi, u joydan-bu joyga zil-zambil yuklarni tashish kabi ovoragarchiliklar sillani quritadi. Bu kabi tashvish yo'q deganda har ikki-uch oyda takrorlanaverishi esa oldinga qo'yilgan buyuk maqsaddan chalg'itadi, ortga chekinishga majbur qiladi. Buning oqibatida ko'plab iqtidorli yoshlar iqtisodini tiklab, "vatan ichra vatan" qilish uchun o'zini bozorga urdi. Kishi o'z ishini sidqidildan bajarishi uchun unga eng avvalo xotirjamlik zarur. Oilaviy xotirjamlikni esa uy-joysiz, zarur ehtiyojlarni qoplaydigan oylik maoshsiz tasavvur qilish qiyin.



Bugun shunday mashaqqatlar ilm ahli yelkasidan ko'tariyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlat rahbarining shaxsan o'zi respublika ilm-fani rivojiga, akademiklar, yosh olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga bosh bo'lyapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-iyuldagi "Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chorra-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 2-bandiga muvofiq shu yil 1-avgustdan Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati xodimlari oylik maoshlari 2 barobar, 1-sentabrdan ilmiy-tekshirish institutlari muhandis-texnik xodimlari o'ylarlari lavozimi va ilmiy faoliyatidan kelib chiqib 30 foizdan 100 foizgacha oshiril-yapti.

Eng asosiysi, yosh olimlarni birlamchi ehtiyoj — uy-joy bilan ta'minlash tizimining yo'lga qo'yilishi ilm-fanimizda so'nggi yigirma yilning katta voqeasi-ga aylandi. Masalan, 2018-yil arafasida o'zining fidokorona ilmiy faoliyati bilan akademik fan rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan, oliy ta'lim tizimida yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonida faol ishtirok etayotgan hamda ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishda salmoqli yutuqlarga erishayotgan Fanlar akademiyasining 40 nafar yosh olimlari, tadqiqotchilari hamda ilmiy izlanuvchilarga poytaxtimizning Sergeli tumanida yangi qurilgan arzon ipoteka uylari imtiyozli kredit asosida topshirildi.

O'zR FA akademiyasi akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi institutining Kumarinlar va terpenoidlar kimyosi laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, kimyo fanlari nomzodi Sobirjon Nishonboyev ham uyli bo'lgan

40 nafar yosh olimning biri. Yoshligidan kimyo va biologiya sohasiga qiziqishi kuchli bo'lgan Sobirjon maktabni tugatib, 1996-yili Toshkent farmatsevtika institutiga o'qishga kirdi. Mazkur dargohda asosan tabiiy va sintetik dori vositalarining yaratilishidan to'g'ri ishlab chiqarilishi, standartlash hamda sifatini nazorat qilish bo'yicha bilim oldi. Uni tabiiy birikmalar, ya'ni dorivor o'simliklardan biologik aktiv birikmalarni ajratib olish va ular asosida dori vositalari yaratish kabi tadqiqotlar qiziqirgani bois, ilmiy tadqiqot olib borish maqsadida O'zRFA akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi institutining aspiranturasida o'qishni davom ettirdi. 2006-yili nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, hozirgi kunga qadar ushbu institutda o'simliklar tarkibida uchrovchi biologik faol fenol birikmalarini tadqiq qilish bo'yicha ilmiy ishlarini davom ettirmoqda.

Yangi uy, ayniqsa, farzandlarimizning quvonchiga quvonch qo'shdi, — deydi Sobirjon Nishonboyev. — Farzandlar haqida qayg'urish, ularning kelajagini yaratishga imkon yaratish har bir yosh ota-onaning burchidir. Yurtboshimizning fan ahliga ko'rsatayotgan e'tibori bois biz xotirjam va mamnunmiz. O'ylaymanki, uy-joyi bor, oilasi tinch har bir ilmiy xodim o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga albatta erishadi.

Bir umr dalada ishlab ro'zg'or tebratgan Qumrixon aya farzandi Abdug'afforning ilmga tashna bo'lib ulg'ayayotganidan boshi ko'kka yetardi. Shuning uchun ham charchoqlarini tez unutar, maktab tomon yo'li tushganda o'qituvchilardan dilbandi haqida ilq gaplarni eshitib, o'g'liga yanayam mehri iyar, o'qishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilardi. Shu tarzda oradan yillar o'tdi. Abdug'afforning tirishqoqligi va mehnatsevarligi, onaizorining

duolari kun kelib katta muvaffaqiyatlar eshigini ochdi. 2010-yili Abdug'affor Hurmatmatov "Markazdan qochma kuch maydonida tolasimon changlarning cho'kish jarayonini jadallashtirish va seklon uskunalarni modernizatsiya qilish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning bu yutug'idan boshi osmonga yetgan Qumri ayani doim bir narsa bezovta qilardi: o'g'li bola-chaqasini olib, dasta-dasta kitob-u qo'lyozmalari bilan Toshkentning dam u, dam bu hududiga ko'char, ba'zan sovuq qish kunlari ham boshpana izlab yurardi. Onaxon olim bolasining o'z ustida ishlash, izlanish o'rniga uy-joy muammosi bilan kurashib yashayotganidan kuyinar, shunda ham yaxshi kunlarga umid qilishardi. Bu gal esa onaxon farzandiga Sergeli tumanida qad rostlagan ko'p qavatli yangi uylardan uch xonali kvartira berilganini eshitib, quvonganidan poytaxtga go'yo uchib keldi.

— Uyimiz juda shinam, yonida maktab, bog'cha bor, — deydi Abdug'affor Hurmatmatov. — Turmush o'rtog'im bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasining Umumiy va noorganik kimyo institutida ishlaymiz. Yangi uyga ko'chganimizdan so'ng ko'p o'tmay, uchinchi farzandimiz dunyoga keldi. Bu qo'shaloq yangilik onamni nihoyatda shodlantirdi. U kishi ezgu ishlar boshida turgan Yurtboshimizni uzoq duo qildi. Insonning ko'ngli xotirjam bo'lsa, ishida ham unum, baraka bo'ladi, deyishadi. Ayni kunda institutdagi "Kimyoviy texnologiya jarayonlari va qurilmalari" laboratoriyasiga mudirlik qilish bilan birga, "Neftgaz kondeksati aralashmalarini mexanik qo'shimchalardan chuqur tozalash jarayonini takomillashtirish" mavzusida doktorlik ishi ustida izlanish olib boryapman.

Mana, ikki yildirki, bu e'tibor hanuz davom etyapti. Shu yilning 3-iyun kuni 25 nafar yosh olimga Prezident sovg'asi sifatida tekinga yangi 1 xonali uylar topshirildi. Yosh olimlarga kalitlarni Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortixov javey taqdim etdi. Mamlakatimiz mustaqilligining 28 yilligini yangi uyda kutib olayotgan yosh olimlar orasida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi tayanch doktoranturasida tahsil olayotgan Feruza Bobojonova, Naim Husainov va Jo'rabek Norbekov ham bor. Yosh olim Naim Husainov markerlarga asoslangan seleksiya texnologiyasini qo'llagan holda g'o'zaning vilt kasalligiga chidamli nav va liniyalarini yaratish ustida tadqiqotlar olib borayotgan bo'lsa, Feruza Bobojonova kartoshkaning gen-nokaut texnologiyasi asosida yangi istiqbolli liniyalarini olish bo'yicha tadqiqot olib bormoqda. Feruza Bobojonova 2014- va 2018-yillarning eng faol yosh olimi deb tan olingan.

— DNK barkodlash texnologiyasi yordamida mahalliy bug'doy navlarining genetik pasportini ishlab chiqish bo'yicha shug'ullanyapman, — deydi Jo'rabek Norbekov. — Mazkur pasport seleksioner olimlar yaratgan navlarining mualliflik huquqini himoya qiladi, olimlar tomonidan bilib-bilmay o'simliklarning bir xil

navlari yaratilishining oldi olinadi hamda navlarning xilma-xil bo'lishiga xizmat qiladi. Prezidentimizning bu sovg'asi biz kabi yosh olimlarning ko'nglini tog'dek ko'tardi. Bu bir tomondan bizga bo'lgan ishonch, ikkinchi tomondan ilm-fan bilan shug'ullanish arafasida turgan yoshlar uchun namuna ham bo'ldi. Kelgusida bu kabi e'tibor va g'amxo'rliklar, albatta, o'z mevasini beradi.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozovning aytishicha, mazkur institutdan ham ikki nafar yosh olimga prezident sovg'asi sifatida tekinga uy berildi. Ulardan biri ikki farzandning otasi Javlonbek Yarashov institutning "Nazariy va qurilish mexanikasi" kafed-rasi tayanch doktoranti. U 1985-yilda tug'ilgan, oliy ta'lim muassasasining "Bino va inshootlar" ta'lim yo'nalishini 2007-yilda tamomlab, shu institutning "Selga qarshi va o'zanni rostlash inshootlari" mutaxassisligi bo'yicha magistraturani 2009-yilda tugatgan. Javlonbek faoliyatini institutning "Nazariy va qurilish mexanikasi" kafedrasida assistentlik lavozimidan boshlagan. Hozir "Irrigatsiya gidrotexnika inshootlarini qurish va ulardan foydalanish" fakultetida dekan o'rinbosari. Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida "Bir jinsli bo'lmagan strukturali gidrotexnika inshootlarini dinamik mustahkamlikka baholash va ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi davlat grantida kichik ilmiy xodim sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashib kelmoqda. J.Yarashov "Gruntning qovushqoq-elastik va elastik-plastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda gruntni to'g'olonlarning kuchlanganlik-deformatsiya holatlarini baholash" mavzusi borasida PhD dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, hozirga qadar 30 dan ortiq ilmiy maqola chop ettirgan va yaratgan EHM dasturlari uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 9 ta mualliflik guvohnomasini qo'lga kiritgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish to'g'risida 2 ta dalolatnoma olgan. U 8 ta o'quv-uslubiy ish muallifidir.

— Hech ikkilanmay ayt olamanki, byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda eng yuqori oylik OTM professorlarga beriladigan bo'ldi, — degan edi Xalqaro press-klub tadbirida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari Sarvarxon Buzrukkonov. — Avvallari ilm ahlining ko'pchiligi bu sohadan ketib qolgan edi, shu bilan birga yoshlar orasida ilmga intilish ham susaygandi. Professor yoki dotsentda ilmiy ish qilishga rag'bat yo'q edi, chunki ularning oylik maoshi assistentning maoshidan atigi 700 ming so'm farq qilardi. Bugun esa OTM professori 6 717 000 so'm maosh oladi. Taqqoslaydigan bo'lsak, 2016-yil 1-oktabrida professorming maoshi 2 178 000 so'm bo'lgan, ya'ni 3,2 baravar oshgan. Bu o'z-o'zidan ilmga, ta'lim sifatini oshirishga rag'bat uyg'otadi.

Bu yil oxirigacha yana 50 ga yaqin yosh olimga uy berilishi kutilmoqda. Demak, shuncha oila baxtiyorlik hissi og'ushiga cho'madi. Shuncha olim xotirjam ilm dengiziga sho'ng'iydi. Bunday g'amxo'rlik va rag'batni ko'rib ulg'ayayotgan oila farzandlari orasida buyuk kelajak olimlari kamol topadi.

Abror UMARQULOV

“Oʻzbekistonda eng hurmatli inson – muallimdir!”

“Maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek gap”

Yurtboshimizning xalq taʼlimi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod maʼnaviyatini yuksaltirish masalalariga bagʻishlangan videoselektordagi nutqini tinglab, toʻlqinlanib ketdim. Yigʻilishda oʻgʻil-qizlar taʼlim-tarbiyasi, oʻqituvchi obroʻsi, maʼnaviyat tushunchalari haqida bildirilgan fikrlar nafaqat har bir pedagog, balki mamlakatning har bir fuqarosi zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi. Ayni paytda biz, pedagoglar oʻz ustimizda ishlab,

vatanparvar va bilimli yoshlarni tarbiyalashimiz har qachongidan-da muhim. Keyingi yillarda taʼlim tizimini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilindi. Bu meʼyoriy hujjatlar oʻqituvchilar manfaatini himoya qilib, majburiy mehnat va jamoatchilik ishlariga jalb etilmasligimizni taʼminlayapti, erkak muallimlarning maktablarga qaytishiga erishilyapti.

Har gal oʻqituvchining xalq orasida hurmat qozonishi haqida soʻz yuritilganda, uch-toʻrt yil avval roʻy bergan bir voqea esimga tushadi. Oʻshanda men dars berayotgan sinfdagi bolalar yangi mavzuni odatdagidek jonquloq boʻlib tinglashardi. Ular orasidagi shoʻx va erka oʻquvchi orqa qator-dagi partada oʻtirgancha goh u yonga, goh bu tomonga qarab tartibsizlik qila boshladi.

Dastlab oʻzimni uning qiqillarini payqamagandek tudim va mashgʻulotni yaxshi kayfiyatda davom ettirishga urindim. Oʻzi darsga quloq tutmagan oʻquvchini atrofidagilarning ham diqqatini boʻla boshlagandan keyin ogohlantirdim. Oradan besh-oʻn daqiqa oʻtgach esa uning tartibsizligi avjga chiqib, partani doira qilib chala boshladi. Unga biror joyi ogʻriyotgan boʻlsa yoki jim oʻtirishni istamasa, chiqib ketishini taklif qildim. Odatda oʻquvchilarni maktabdagi qattiqqoʻl sport murabbiyining bekorchil yurgan bolalarni jazolashini oʻylab, mashgʻulot payti maktab hovlisida koʻrinib berishga choʻchishardi. Shu bois oʻz axloqsizligini namoyish etayotgan bola sinfni tark etmadi, jahl

bilan orqasiga oʻgirilib, devordagi koʻrgazmali plakatni tortib agʻdarvordida. “Mening amakim shunday kuchlikli, xohlagancha xatti-harakat qilishim mumkin”, degani oʻlganning ustiga tepki boʻlib, qon bosimimni oshirib yubordi. Bu holatga jim qarab turolmadim va maktab direktorining maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari hamda sinf rahbarini chaqirib, darhol chora koʻrishni qatʼiy talab qildim. Oxiri bolaning onasi maktabga yetib keldi. Uning oʻquv zalini boshiga koʻtarib baqirishidan “qush uyasida koʻrganini qilishi” koʻnglimdan oʻtdi. Shu vaziyatda toman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi vakili yetib keldi. Kunning yarmi shu mojarolarni muhokamasi bilan oʻtib ketdi. Pedagogik jamoamiz oʻsha ayolni tinchitish uchun menga ota-ona doim haq ekanini uqtirdi, huquq posbonlari esa mening vakolatimdan koʻra oʻquvchi va onasining daxlsizligining ustunligini aytishdi. Xullas, oʻquvchilarga jonini kuyitib, saboq bergan oʻqituvchi butkul nohaq topildi. Bu mening hayotimda va xayolimda iz qoldirgan unutilmas koʻngilsizlik edi. Shunda

pedagogik haq-huquqim va ustozlik maqomi himoya qilinishini juda-juda istagandim.

Hozir maktab darvozasidan kirib kelayotgan ota-onalarning qoʻlini koʻksiga qoʻyib “jon ustoz”, deya murojaat qilishi, oʻquvchilarning ustozlarga hurmatini koʻrganimda gʻururlanaman. Barchasi uchun Prezidentimizdan minnatdormiz. Videoselektorda ham oʻqituvchilar davlatning faxri ekani taʼkidlanar ekan, fransuz adibi Viktor Hyugoning “Maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek gap”, degan iborasi eslatilib, bu soʻzlar zahirida maktab, taʼlim-tarbiya bor joyda bolalar yomon yoʻlga kirmasligi, jinoyat sodir etilmasligiga eʼtibor qaratildi. Nafaqat maktab ochgan, balki maktabda fidoyi boʻlib ishlagan har bir oʻqituvchi, har bir ustoz ham ana shu sharafla maqomga loyiq koʻrildi. Zero, biz ham buyuk kelajakning pishiq poydevorini qurishga oʻzimizning munosib hissamizni qoʻshaylik. Bu yoʻlda mehnat va izlanishdan tolmay, imkoniyatlardan unumli foydalanaylik.

Muhayyo BOYMURODOVA,
Toshkent shahridagi
153-maktab oʻqituvchisi

Kim kimni ayblaydi?

Bola maktabdan yigʻlab keldi. Koʻzi toʻla yosh, kimdir uni haqoratlagan. Oʻqituvchi uni sinfdoshlari oldida kamsitibdi. Telefonda gaplashib oʻtirgani uchun “Sen odam boʻlmaysan, ahvolding shu boʻlsa, hech qachon oliy oʻquv yurtida oʻqiy olmaysan, bezori...” deya tanbeh beribdi. Bu ham kamlik qilganday, uni chorak soat sinf burchagida turgʻizib qoʻygan...

Siz nima deysiz?

Bola — aziz. Undan hech narsani ayagimiz kelmaydi. Oʻqituvchi koʻzingizning oq-u qorasini kamsitib, “Odam boʻlmaysan”, desa alam qilmaydimi? Oʻsmirga oʻqitish davrida “Oʻqishga kirolmaysan, bezori”, deyish joizmi? Burchakka turgʻizib, izza qilingani hammasidan oshib tushmadimikan? Har qanday ota-ona bunday vaziyatda pedagogdan “oʻch” olgisi, haddidan oshgani uchun taʼzirini berib qoʻygisi kelib qoladi. U ham bir izza boʻlib koʻrsin. Shunday boʻldi ham... Dili ozorlangan oʻgʻlining yonini olish, orqasida ota-onasi borligini isbotlab qoʻyish maqsadida ertasi kuni ota toʻgʻri boʻrib direktor xonasiga kirdi. Haddini bilmagan oʻqituvchi bilan “gaplashib” qoʻyish uchun oʻgʻlining sinfini koʻrsatib qoʻyishini talab qildi. Direktorning “Murosa qiling, oʻzingizni bosing, bolangizni oʻylab shunday qilgan...” qabilidagi gaplari boʻgʻzi-da qoldi.

Buyogʻi kundes ravshan. Sinfga otilib kirgan ota muallimni doʻpposlamodan beri boʻlib, oʻdagʻaylay boshladi. Ogʻizdan bodi kirib, shodi chiqdi. Obroʻ va andisha bir pullik boʻldi. Us-

toz oʻzini har qancha oqlashga harakat qilmasin, baribir yuzi qora. “Demokrat ota”ning jahli yomon, “gʻing” deb koʻrsa, muallimning “onasini Uchqoʻrgʻondan koʻrsatadigan” darajada toʻnini teskari kiyib olgan.

Masalaning ikkinchi tomoni — tomoshaga oʻquvchilar guvoh. Ustoz sinfdoshlari oldida bolaning dilini ogʻritdi, endi hurmati qoldimi? Oʻquvchilar orasida otaning xatti-harakatidan soʻng ustozni masxara qilganlar yoki unga achinganlar boʻldi. Oʻn ikki yoshdagi oʻsmir haqmi yoki pedagog haqmi, bu yogʻi qorongʻi. Kimdir hurmati yoʻqolgan yosh oʻqituvchini oqlaydi, kimdir “aybdor”ni...

Birodarimning rafiqasi shahar maktabida oʻqituvchi. Dars qoldirgan, mashgʻulotlarga tayyorlanib kelmagan bola uning tanbehiga duch keldi. Maktabda hali yangi emamsi, erkatoiy oʻquvchining “orqasida” kim turgani, yaqinlari qanday feʼl-atvorli odam ekanligini bilmagan. Maktabga ikki-uch ayol bos-tirib kiradi. Shallaqi ayollar koʻziga kim yomon koʻrinsa, uni haqoratlashga tushibdi, bu siylovdan tanbeh bergan oʻqituvchi ham “benasib” qolmagan. Voqea yakuni — oʻqituvchi kasbidan voz kechdi.



Oʻqituvchi namuna boʻlsin

Prezidentimiz boshchiligidagi oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida maktablardagi yutuq va kamchiliklar ochiq-oydin aytib oʻtiladi. Bu fikrlarni tinglab menda ham biz qator mulohaza tugʻildi.

Hozirgi paytda maktab oʻqituvchilarining hammasi ham taʼlim sifati va samaradorligini oshirish borasida zamon talablariga javob beradimi? Maktabda sifatli taʼlim-tarbiya berishga qanday omillar xalal bermoqda? Bu omillarning oldini olish, ularga yechim topish uchun faxriy pedagog sifatida takliflarimni bildirmoqchiman:

1. Maktabni muqaddas dargoh deb bilish, uning mol-mulkiga koʻz olaytirmaslikni xalqqa, rahbarlarga, farzandlarimizga singdirishimiz lozim.
2. Ayrim oʻqituvchilarning maktabni savdo-sotiq maskaniga aylantirib olishiga yoʻl qoʻymaylik. Hatto ayrim maktablarda tilla taqinchoqlar, ayollar va bolalar kiyimlari, boʻyanish anjomlari sotilmoqda.
3. Maktabda boshlangʻich sinflarga pullik repetitorlik tashkil qilinishiga chek qoʻyaylik.
4. Oʻqituvchi yurish-turishiga eʼtibor qaratish kerak. Ular keng jamoatchilikka namuna boʻladigan kiyinish uslubi va xulq-atvoriga ega boʻlsin.
5. Aksariyat hollarda 5—7-sinflarda sardor qiz bolalar boʻladi. Oʻgʻil bolalarda yetakchilikni shakllantiraylik.
6. Yosh oʻqituvchilarga shogirdparvar ustozlarni birlashtirish joiz.
7. Ish beruvchi bilan oʻqituvchi oʻrtasida tuziladigan mehnat shartnomasini aniq huquqiy asoslarga tayanib tuzish maqsadga muvofiq.

Qahhor RAHMONOV,
faxriy muallim

Nurota turmani

Jangari ayollar bolaning onasi yoki opasi emas, xola va ammalari ekan. Ota-ona xorijda. Ular qaysi bir oʻqituvchi qu-yushqondan chiqib ketsa, taʼzirini berish uchun “yeng shimarib” maktabga kelishar ekan. Bora-bora ustoz-muallimlar oʻquvchi taqdiri haqida qaygʻurishni bas qilib, “Menga nima?” qabilida ish tutadigan boʻlibdi.

Ikkala holatda ham oʻqituvchini oqlamoqchi emasmiz. Balki ularning oʻquvchi bilan alohida gaplashib, qanday tanbeh berishga tajribasi yetmagandir. Ehtimol, pedagoglik tajribasi kamlik qilsa ham, toʻgʻri yoʻl tutdik, deb hisoblashar. Ammo oʻsmirlardan oʻtgan “ayb” yoʻqmi?

Masalaning jiddiy tomoni — barcha ota-onalar farzandining yonini olish uchun maktabga borib toʻpolon qilaversa, oʻqituvchi obroʻsini toʻkaversa, oʻquvchi-yoshlar taltayib ketmaydimi? Oʻz oilasi yoki maktabda tartibga oʻrganmagan, tarbiya koʻrmagan oʻquvchi kelajakda oʻz oʻimini topa oladimi? Kalondimogʻlik, hech kimdan hayiqnamaslik hissi farzandlarimizni qay yoʻlga boshlaydi? Achinarlisi, oʻqituvchini izza qilish uchun maktabga borgan ota-ona biror marta farzandining taʼlim-tarbiyasini surishtirish uchun taʼlim dargohiga qadam ranjida etganmi? Erkatoiy vaqti kelib, otasi yuziga oyoq qoʻysa, oʻshandagina u oʻqituvchini ni ayblab notoʻgʻri ish qilganini angelaydi. Bu tipdagi ota-onalarni qaysi oʻqituvchi oʻqitdi ekan?

Zamon oʻzgardi, “Eti sizniki, suyagi bizniki”, deyidigan davr oʻtdi. Kimdir farzandimizga tanbeh berib, tartibga chaqirsa, bu uning manfaati uchun qilinganini tushunib yetishimiz kerak. Ustozga shunay uchun ham fidoyi, jafokash deya nisbat beramiz.

Bola maktabdan oʻpkasi toʻlib qaytdi. Nima qilish kerak? Isomiddin POʻLATOV

Samarqand viloyati

Mushtariy muhokamasi

Shu yilning 23-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida taʼlim sifati va oʻqituvchi-murabbiylarning mavqeyini oshirishga bagʻishlangan videoselektor boʻlib oʻtgan edi. Ushbu yigʻilishda maktab taʼlimining rivojlanishiga toʻsiq boʻlayotgan bir qancha muammolar tilga olindi. Shu bilan birga, oʻqituvchining obroʻsini oshirish, taʼlim sohasini yanada takomillashtirishga doir koʻplab fikrlar aytiladi. “Telegram” tarmogʻidagi “Maʼrifat” mushtariylari guruhida hali videoselektor tugamay turib, unda qatnashgan va yigʻilishni axborot vositalari orqali kuzatgan muallimlarning bahs-munozarasi qizgʻin tus oldi.

Shavkat YOʻLDOSHEV:

“2020-yilning 1-yanvaridan hech qaysi xalq taʼlimi xodimi, direktor va boshqalar maktab taʼmiri bilan shugʻullanmaydi, bu ishlarni mahalliy hokimliklar bajaradi”... Bu gaplar minglab pedagoglarning koʻnglida umid uygʻotdi. Quruvchilik, taʼmirlash, pul yigʻish kabi taʼlimga daxli boʻlmagan ishlar oʻqituvchilar zimmasidan soqit qilinsa, taʼlim sifati ham yuksaladi. Negaki, pedagogni chalgʻitadigan, ranjitadigan, charchatadigan narsalar boʻlmaydi. U faqat dars, taʼlim-tarbiya haqida bosh qotira boshlaydi. Qanday yaxshi!

Shahnoza MUHAMMADJONOVNA:

“Oʻzbekistonda eng hurmatli inson — muallimdir!” Bu fikrlari uchun Prezidentimizga rahmat.

MUZAFFAR:

Hokimlar ham ustozlarni sizlab gapirsa... Qoʻyil, oʻqituvchilarning mavqeyi shunchalik koʻtarilarmikan?!

Tursunoy YUSUPOVA:

Prezidentimizga barcha oʻqituvchilar minnatdorlik bildirmoqda. Jamiyatda muallim obroʻsini koʻtarish masalasi shaxsan davlat rahbarining diqqat markazida ekanidan benihoya xursandman. Oʻqituvchilarning azaliy orzusi ushalmogʻda.

Dildor NURMUHAMMEDOVA:

Men ham videoselektorda qatnashdim. Taassurotlarim katta! Davlatimiz rahbari “Hokimlarning ishini maktablarga borib baholayman” degan maʼnoda gapirdilar. Har bir maktab bittadan rahbarga biriktirilgan, universitet va maktab hamkorligi mustahkamlanar ekan. Bunday islohotlar amalga oshirilsa, yaqin yillarda taʼlimda yuksak natijalarga erishiladi.

Zebo MAQSUDOVA:

Oʻquv dasturiga tarbiya fanining kiritilishi juda maʼqul ish boʻldi. Birgina ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar uyushtirayotgan pranklarni kuzatsak ham yoshlar tarbiyasi bilan jiddiy shugʻullanishimiz lozimligi ayon boʻlmoqda.

Aziza BOYMURODOVA:


Davlatimiz rahbarining ustoz shaxsini eʼzozlash borasidagi fikrlari har bir muallimga qanot berdi. El-sevar ustoz sifatida yonib ishlashga, fidoyi boʻlishga undadi, desam mubolagʻa boʻlmass.

Barno NASIMOVNA:

Videoselektorda aytilgan gaplardan hayajonga tushdim. Barcha yaxshi gaplar, rejalar amalga oshishini tilayman. Shu bilan birga, har bir pedagogdan Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, “jamiyatdagi eng hurmatli inson” nomiga loyiq boʻlib faoliyat yuritishini soʻrab qolaman.

Dilfuza SUVONOVA:

Yurtboshimiz yonib ishlayotganida, nega biz u kishi-ga kamarbasta boʻlmashimiz kerak. Biz, oʻqituvchilar



bundan buyon astoydil ishlashimiz kerak. Pedagogning qilgan zarracha xatosi bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Maktabdagi har bir bolaga oʻz farzandimiz, deb qaramas ekanmiz, natija boʻlmaydi. Sifatli taʼlim berishimizda “Maʼrifat” gazetasining oʻrni beqiyos. Bu yil taʼlimda yangiliklar, oʻzgarishlar koʻp. Tarbiya darsining kiritilishi ayni muddao. Bu darsni duch kelgan oʻqituvchi oʻtmashligi kerak. Axir oʻz nomi bilan bu katta bir dars.

Gulchehra ASHUROVA:

Afsuski, keyingi paytda “maʼnaviyat” tushunchasining ahamiyatini tushirib yubordik. Maʼnaviyatga keraksiz buyumdek munosabatda boʻldik. Bugun koʻpchilik yoshlar ongini isteʼmolchilik kayfiyati, Vatan, el-yurt taqdiriga beparvolik, “ommaviy madaniyat”ga moyillik, koʻr-koʻrona taqlid egallab olmoqda. Oʻzingiz aytib, oʻz xalqining tarixini, maʼnaviy va diniy qadriyatlarini hurmat qilmaydigan, ularni himoya qilishga qodir boʻlmagan odam vatanparvar va elparvar boʻlishi mumkinmi? Ajdodlarimiz oʻzlarining ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan dunyoga ustozlik qilishgan. Boshqalarga ergashmagan, balki boshqalarni ergashtirgan. Biz ham ergashuvchi emas, ergashtiruvchi kuchga ega avlodni tarbiyalashimiz shart. Aks holda, taraqqiyot yoʻlidan chekkaga chiqib, yana tanazzul botqogʻiga botamiz. Ota-bobalarimiz erishgan marralarni osongina boy berib qoʻyamiz. Bu ajdodlar ruhiga, kelajak avlodlarimizga xiyonat emasmi? Bu sohada bugun shoshilinch choralar koʻrmasak, ertaga kech boʻladi.

Asrorbek BOTIROV:

Taʼlim sohasi hali koʻp islohotlarga muhtoj. Avvalo, maʼmuriy buyruqbozlikni yoʻqotish lozim. Hozir tizimdagi eng kichkina mavqedagi shaxs — oʻqituvchi. Buni oʻzgartirish kerak. Boshqaruv tizimini optimal-lashtirish zarur. Buyruqlar-u hisobotlarning juda koʻp qismi faqat qogʻozda qolib ketadi. Shunday ekan, asosiy kuchni qogʻozbozlig-u buyruqbozliklarga emas, taʼlim

jarayoniga qarataylik. Shuningdek, sohada tabiiy tanlanish tizimini yaratish kerak. Masalan, oʻqituvchilar mao-shini oʻzi dars oʻtadigan sinfning natijasiga qarab olsa, uning oldida ikki yoʻl qoladi: yo oʻz ustida ishlab natijaga erishadi yoki tizimdan chiqib ketadi. Shunda hech kim oʻqituvchiga oʻz ustingda ishla, innovatsiya qil, deb jon kuydirib oʻtirmaydi. Yana, maktab, oliy taʼlim, ishlab chiqarish oʻrtasidagi hamkorlikni shakllantirish kerak. Hozir oʻquvchi maktabni tugatib (agar repetitorga bor-masa) OTMga kirolmaydi. OTMlarning esa aksariyatida qanday oʻqitilishini hammamiz yaxshi bilamiz. Ishlab

chiqaruvchi korxonalar oliy maʼlumot diplomiga ega kadrlarni ham qay-tadan oʻqitishiga toʻgʻri kelyapti.

Dildor

NURMUHAMMEDOVA:

Necha kundirki, Prezidentimizning “Bugundan boshlab Oʻzbekiston sharoitida eng hurmatli inson bu — oʻqituvchi” degan soʻzlari butun respublikamiz boʻylab aks-sado beryapti. Shu aks-sadoga javoban munosib ovoz bera olamizmi? Bu ovozning yukini koʻtara olamizmi? Oʻz aksimizga berayotgan savollar shu qadar koʻpki! Agar biz, ustozlar bir maqsad yoʻlida birlashsak, albatta, Prezidentimiz, xalqimiz ishonchini oqlaymiz!

Farida AXBORALIEVA:

Videoselektordagi soʻzlarni eshitib koʻp yillardan buyon qogʻozda qolgan sharaflil kasb egasi ekanimizni anglab yetdik. Shu davrga qadar biz mashaqqatli va sharaflil kasb egalari deb atalar edik-u, sharaflil tomonini hamma ham koʻraversamiz. Bugun gʻalvirlar suvdan koʻtarilib, taʼlim sohasiga katta eʼtibor berilib, barcha muammolarga ochiq koʻz bilan qaraldi. Ertangi islohotlar amalga oshishiga intizormiz.

Dilafroʻz HOSHIMOVA:

Videoselektorda aytilgan gaplar har bir oʻqituvchini toʻlqinlantirdi. Oʻqituvchi nufuzini oshirish borasida shu soha vakillarining dilidagi deyarli barcha masalalar Yurt-boshimiz tomonidan tilga olindi. Xususan, oʻqituvchilarni vazifasidan tashqari ishlarga jalb qilmaslik, ularning moddiy ahvolini yaxshilash, farzand tarbiyasida ota-ona masʼuliyatini oshirish, OAV orqali oʻqituvchilar faoliyatini yoritish kabi masalalar har bir muallimning dilidagi gap boʻldi. “Bola oilada uyini, bogʻcha va maktabda Vatanini taniydi”, dedilar rahbarimiz. Haqiqatan, bolaning ikki qano-ti bor: biri ota-onasi boʻlsa, biri muallimdir. Shu ikki qanot bir-biriga hamohang harakatlansagina bola parvoz qiladi, yuksak marralarni koʻzlaydi.

Zevarshoh HAMROEVA:

Prezidentimizning nutqi oʻqituvchilarni uchun haqiqiy erkinlik eshigini ochib berdi, desak adashmaymiz. Shu kasbni tanlab xato qilmaganimni anglab yetdim. Endi koʻproq ishlashimiz, izlanishimiz kerak. Videoselektorda oʻqituvchi mavqeyi borasidagi iliq gaplardan keyin oʻqituvchilarning oʻz oila aʼzolari, yor-u doʻstlari oldida qadri bir pogʻona oshgandek xato qilmaganimni anglab yetdim. Kechagina oʻqituvchi kelinini kurakda turmaydigan turli gaplar bilan azoblab kelayotgan qaynonaning oʻzgarib qolganini ham koʻrdim. Qarang, birgina ogʻzaki hurmat ifodasi bir oila tinchligiga qanday taʼsir koʻrsatadi. Belgilangan rejalar amalga oshib, muallim mavqeyi rostdan ham koʻtarilsa, hech bir oʻqituvchining xonadonida ziddiyatlar boʻlmas, ehtimol.

Zilola MADATOVA
tayyorladi.

Jaranglayver, birinchi qo'ng'iroq!

Maktabim, aziz koshonam! Orzularga boy qalblar yana sen tomon talpinmoqda. Muallimlar sabog'idan qalbimiz zakiylik mevalarini teradi. Ha, sunbularning salqin subhida qo'shaloq shodiyona shukuh ko'ngillarni qamrab oladi. Shu tongda taralgan birinchi qo'ng'iroq bongi barcha ilm ahlini bilim cho'qqilarini egallashga, o'quv yili mobaynida ma'rifat tog'larini zabt etishga chorlab turadi go'yo.

Darhaqiqat, birinchi qo'ng'iroq — ko'ngillarni chog' aylaguvchi sado. Birinchi qo'ng'iroq jarangi har bir qalbga, ayniqsa, bilimlar xazinasi sari intilayotgan jajji bolajonlar ko'ngliga quvonch baxsh etadi. Chunki uning zamirida samimiyat, jo'shqinligi-u ajib bir dilafzo ruh yashirin. Yangi o'quv yiliga shay etib qo'yilgan bilim maskanlari yana jajji bolajonlarning beg'ubor qo'yqirig'i-yu samimiy kulgilari-ga to'ladi.

Men ham har yili Bilimlar kunidagi birinchi qo'ng'iroq jarangini intiqlik bilan kutaman. Ko'nglimda ajib bir his tuyaman. Bu menga bolalik davrimdagi xazonrez faslining ilk salqin tongini, dalasi-ga shoshilayotgan bobodehqonning shirin tashvishlarini, chiroyli, ozoda maktab formalarni kiyib safda turgan, dunyo go'zalligiga qarab to'yagan qizaloqning ichki hayajonini eslatadi.

Jaranga, qo'ng'irog'im,
Berib yurtimga oro.
Jajji qalblar shodlansin,
Taronangdan tobora.
Qo'ng'irog'im jarangi,
Taralsin samolarga.
Bizdan salom yetkazsin,
Ko'kdagi humolarga.

Bugunning bolasi zukko va talabchan, hozirjavob va bilimdon. Bunday bolalarni tarbiyalaydigan o'qituvchilar ham jismonan, ham ma'nan sog'lom, kuchli bilim sohibi, yangi pedagogik texnologiyalar asosida ish yurituvchi, darsda o'quvchilarning faolligini oshira oladigan, ijodkor-

likka chorlovchi o'z kasbining bilimdoni bo'lishi kerak.

Maktab — tarbiya o'chog'i. Unda saboq oluvchilar o'zida yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantira olgan, Vatanga cheksiz muhabbatli, el-u yurtini rozi qilish yo'lida yonib yashaydigan, fidoyi farzandlar bo'lib yetishishi lozim.

Vatan qadrini bizdan ko'ra insoniylik huquqlari toptalgan ajdodlarimiz, Qodiriy asarlarini yashirib o'qigan kitobxonlarimiz, yaqinlarining janozasida Qur'on tilovat eta olmagan ahli islom, daryo bo'yida yashab suvga zor o'tgan insonlar yaxshi bilishadi. Vatanni sevish faqatgina og'izda emas, dilimizda, ong-u shuurimizda, qalb-u vujudimizda bo'lsin. Negaki Vatan — ostonamiz, biz to'yib nafas olayotgan havo-yu o'z ne'matlarini ayamayotgan tuproq. Vatan onamiz, Vatan bolamiz va ko'nglimizdir. Uni asrash, sevish, ardoqlash, rivojiga hissa qo'shish siz-u bizning muqaddas burchimizdir.

Qo'shaloq shodlig-u tantanalar arafasida turgan barcha yurtodoshlarimiz, ustozlar, o'qituvchi va murabbiylar, tarbiyachilarga omad, g'ayrat va ijodiy barkamollik tilab qolaman.

Birinchi qo'ng'iroq — Bilimlar kuni bahonasida yurakdagi kechinmalarimni bayon etdim. Qo'shaloq tantanalar yurtimizdagi husniga tobora husn qo'shsin. Ilk o'quv kunidagi shodliklar, quvonchlar har bir bilim maskanini yil bo'yi tark etmasin.

Lobar ERGASHEVA,
Romitan tumanidagi
35-maktab o'qituvchisi

Kattalar va kichiklar

Kattaga hurmat — o'zbekning azaliy odati. Chaqaloqqa ism qo'yish, kelin-kuyovga fотиha berish, taomga birinchi bo'lib qo'l uzatish — keksalar gardanida. Bu hurmat belgisi. Ammo ba'zida yoshlarga qo'yilgan talabni haddan tashqari "oshirib" yuborish hollari uchraydi.

Palatada turli yoshdagi olti bemor. Eng kichigi — Shavkatning tizzasi shikastlangan, oqsoqlanib yuradi. Yoshi kattalar uni yugurtirgani-yugurtirgan.

— O'g'lim, idishlarni yuvib qo'ying.
— Uka, po'choqlarni to'kib kel.
— Nozik mehmon keldi, chiqib tura qoling...

— Bir yo'la tamaki ham olib keling, baraka topkur!

Bechora Shavkat zir yugurib, cho'loqlanib xizmat qiladi. Davolanish birinchi darajali ish emas, yugurdaklik muhimroq. Ishlahasi karnay, ellikni qoralagan xasta navbatdagi "topshiriq"ni beradi. Shavkat ketayotganda, yana:

— Qaytishda paypog'imni ham yuvib qo'ying, bolam, savobning tagida qolasiz, — desa bo'ladi.

Ortiq toqat qilolmadim.

— To'xtanglar, — dedim qat'iy, — sizlar kim bo'libsizki, bu yigitni holi-joniga

qo'yaysiz? Nima, unga o'tkazib qo'ygan joyingiz bormi?

— Qari kelsa oshga, yosh bo'lsa ishga-da! — dedi bemorlarning biri.

— Maqolni o'rniida aytmayapsiz! Yoshi kichik deb tepkilayverish kerakmi? Mana, siz Shavkatdan atigi uch yosh kattasiz, xolos, oyoq-qo'lingiz but. Sigaretni o'zingiz olib kelolmayasizmi? Siz-chi? Uyalmasdan paypoq yuvdirasiz. Savob emish. Ho', ellik yashar ukam, kamharakatlikdan bochkaday bo'lib ketibsiz. Bu ketishda xomsemiz bo'lib qolasiz. Shavkat sizlarga xizmatkormi! Kap-katta odamlarda uyat-andisha bo'lmasa qiyin ekan-da! Buning ustiga Shavkatning oyog'i yurishga yaramaydi. Nahotki, shuni ko'rmayotgan bo'lsangiz!

Dashnomning natijasida Shavkat o'sha kunioyq dastyorlikdan quildi.

Muzaffar ISMOILOV,
Andijon tumanidagi
38-maktab o'qituvchisi

Daraxt hosil berishi uchun tomirlari orqali yerdan kuch oladi. Oddiygina mobil qurilmani ishga tushirish uchun elektr toki yordamida quvvatlantirish kerakligini bilasiz-a? Badiiy asar mutolaasi tasavvurni xuddi shunday ta'sirlantirish kuchiga ega. Bolalikdan boyitilgan, yetarli darajada "oziq"langan inson esa katta kashfiyotlar qilishi mumkin. Badiiy asarlarning xalqona yo'nalishi — ertaklarning hayotimizda tutgan o'rni qanday?

Ertaklar aslida ham "ertak"mi?!

Ertak haqida "ertak" eshitishga kattalik qilaman, deysizmi? Ertak voqealari men uchun judayam oddiy-ku, deganday bo'ldingizmi? Yo'q, menimcha, unday emas! Aslida bizga oddiy va jo'n tuyulgan ertaklarda ulkan hikmat yashirin bo'lishi mumkinki, anglash uchun katta yoshlilikning o'zi kamlik qiladi. Inson ziyrak, mulohazakor, topqir bo'lishi kerak.

Ular qanday paydo bo'lgan?

Juda qadimdan insoniyat tabiat hodisalari sirini anglash, ularni o'ziga bo'ysundirish, adolat, baxt va saodatni orzu qilgan. Barcha xalqlar orzu-niyati bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, turli xalqlarda turlicha kuzatishlar mavjud. Xalqlarning orzu-istaklari ifodasi o'laroq, ertak janri paydo bo'lgan. "Ertak" so'zining lug'aviy ma'nosi "aytib bermoq, hikoya qilmoq" degani. Qadimiy o'zbek xalq ertaklari namunasi ham o'z-o'zidan dunyoga kelgan emas. "Ur, to'qmoq!" ertagida bosqinchiliklardan aziyat chekkan xalqimizning yovlar zaminimizdan ta'zirini yeb, tezroq badarg'a bo'lishlari orzusi yashirin. "Ochil, dasturxon"ni tasvirlab, qachondir dasturxonlari to'kin-sochin bo'lishini, qorni mazali ovqatlarga to'yishini niyat qilgan o'zbek xalqi farovon hayotga erishadi. Cholning laylak oyog'ini davolab tuzatgani zamirida esa, har qanday orzu-umidga yetish, o'zgalarga yaxshilik qilish va mehnat qilish bilan bog'liq ekanligiga ishora bor. Qadimiy ertaklarimizdan yana biri — "Uch og'ayni botirlar"da ikki katta akasining qora devga mag'lub bo'lganini eshitgan Kenja botir dev bilan olishishga ketish oldidan bilagini tilib, tovoqchani qonga to'ldiradi va ustidan sochiq yopadi. Xotiniga qarab: "Sochiqdan qon tomib tursa, mendan xavotir olma. Tovoqchadagi qon zardobga aylanganda esa mendan umidingni uzaver!" deb aytadi. Ertakdagi bu majoziy ifoda aslida aka-ukalar tirik bo'lgan taqdirda hali avlod davom etishi, so'nggi vakil nobud bo'lsa, u tag-tomiri bilan supurilib ketishi haqidagi hayot haqiqati yotibdi.

Barcha kashfiyotlarning asosi

Bugun siz texnika aslida yashayap-

siz, aziz do'stim! Samolyot, raketa nima ekanini yaxshi bilasiz. Hatto havoda uchadigan samolyotning kichikroq nusxasini o'zim yasab bera olaman, desangiz, men ishonaman. Chunki maktabdagi darslik, televizor, gazeta-jurnal, qolaversa, internetdan bunday texnik vositalarning yasalishi va ichki mexanizmi haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Ammo ularni dastlab kashf qilgan olimlar-chi? Ular qanday o'ylab topdi? O'sha olimlar ko'pgina kashfiyotlariga asos bo'lgan g'oyalarni aynan xalq ertaklaridan oldi! Ha, ishonavering, ertaklardan!

Buning dalil-isbotlaridan biri uchar gilamdur. Axir uchar texnik vositalar haqidagi tushunchalar paydo bo'lmasdan turib juda qadimdan insonlar osmonda parvoz qilish haqida o'ylay boshlagan. Bu amalga oshirish mumkin bo'lgan orzu ekanini his etishgan va uchar gilam haqidagi ertakni to'qishgan. Keyinchalik italyan rassomi Leonardo da Vinching dastlabki uchish moslamasini yasash maqsadida izlanishlar olib borishiga ham va nihoyat rus dengiz ofitseri A.Mojayskiyning 1884-1885-yillarda ilk rosmana samolyotni yaratishiga ham aynan uchar gilam haqidagi ertaklar bosh g'oya bo'lib xizmat qilgan bo'lsa ehtimol. Televizor kashf etilishiga esa qadim ertaklarda aytiladigan "Oynayi jahon" turtki bo'lganiga shubha qilmasak ham bo'ladi. Zero, televizorning hozirgi nomlaridan biri ham — oynayi jahon-ku!

Xullas, aytmoqchi edimki...

Yorug' olamdagi hech qaysi ertak aslida, "ertak" emas!

Ertaklar — qadimda yashagan ajdodlarimizning umid va armonlari!

Ertaklar — ota-bobolarimizning o'git va nasihatlari!

Ertaklar — dono o'tmishdoshlarimizning asrlar osha bizga yo'llagan g'oya va kashfiyotlari!

Shunday ekan, aziz do'stim, har zamonda ertak o'qib turing. Mag'zini chaqishga urinib o'qing. Allaqachon bir qancha ertaklar o'qib qo'ygan bo'lsangiz, unda to'qing! Orzularingiz, kelajakdagi maqsadlaringiz unga singib ketsin! Orzularingiz qachondir amalga oshadi.

Bayram Ali QO'LDOSHEV,

Qashqadaryo viloyati

"Ur, to'qmoq!" ertagida bosqinchiliklardan aziyat chekkan xalqimizning yovlar zaminimizdan ta'zirini yeb, tezroq badarg'a bo'lishlari orzusi yashirin.

Agar Pekin kuch qo'llasa, Vashington iqtisodiy sanksiya joriy etish bilan tahdid qilyapti.

Syanganda "Qora qo'llar"ning qora niyatlari

Keyingi paytlarda Xitoyning alohida maqomga ega ma'muriy birligi — Hongkong (Syangan) atrofida kechayotgan to'polonlarni ham shunga qiyoslash mumkin. Ayrim xabarlariga ko'ra, 18-avgust kuni bo'lib o'tgan norozilik namoyishida 1 800 000 nafar odam qatnashgan. Hongkong hukumati davomli norozilik aksiyalariga sabab bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining jinoyatga qo'l urishda gumonlangan shaxslarni ekstraditsiya qilish bo'yicha so'rovlarini qondirish yuzasidan Hongkong Qonunchilik kengashi tomonidan tayyorlanayotgan qonun loyihasi to'xtatilganiga qaramay, norozilik hamon davom etmoqda.

Endi ular Hongkong ma'muriyati rahbari Kerri Lemning iste'fosini, sud sohasida islohotlar o'tkazish talabini ilgari suryapti. Namoyishchilarning e'tiroziga sabab bo'lgan yangi tuzatishlar ekstraditsiya bo'yicha kelishuv bo'lmagan Xitoyning materik qismiga jinoyatlarda gumonlangan shaxslarni topshirishni ko'zda tutardi. Bu o'zgarishga qarshi chiqqanlar, agar qonun qabul qilinsa, bu rasmiy Pekin siyosatidan norozi bo'lgan faollarga ham nisbatan qo'llanishi va ko'plab begunoh kishilar Xitoyga olib ketilib, qiynoqlarga solinishidan, o'lim jazosi qo'llanilishidan xavfsiragandi. So'nggi ikki oydan beri hongkongliklar namoyishlar uyushtirdi, yuz minglab kishilar ko'chalarga chiqdi. Bu mamlakat tarixidagi eng yirik namoyishlarga aylandi.

Xitoy hukumati: o't bilan o'ynashganlar halok bo'ladi

Endi bir o'ylab ko'raylik. Namoyishchilar talabi qondirildi. Qonun loyihasi kun tartibidan olib tashlandi. Unda nega chiqqan kichkina uchqun alangaga aylanib ketyapti? Bizningcha, kimlardir uchqunga moy sepib, uni alangatlashni va uning olovda isinishni maqsad qilgan ko'rinadi. Asosiy maqsad Xitoyning hududiy yaxlitligiga, uning tobora yuksalib borayotgan iqtisodiy salohiyatiga putur yetkazish, rasmiy Pekinni Hongkongdagi namoyishlarni kuch ishlatish orqali bostirishga undash va uning obro'siga soya solish hisoblanadi. Hongkongdagi "beshinchi kolonna" deb atalmish muxolifat ayni fursatdan foydalanib "kerosin" vazifasini o'tamoqda. Shu bois Xitoy hukumatining rasmiy bayonotida Hongkongdagi namoyishlar ortida turgan "jinoyatchilar"ni keskin ogohlantirish bilan bir qatorda, ularni javobgarlikka tortishga va'da berilgan. Bayonotda namoyishchilarning "olov bilan o'ynashayotganliklari" va rasmiy Pekinning og'ir-bosiq reaksiyasini zaiflik deb baholash katta xato ekanini bildirib o'tilgan. "Men barcha jinoyatchilarni ogohlantirmoqchiman: vaziyatni noto'g'ri baholamang va jimgimizga nisbatan ojizlik deb baho berishga shoshilmang", deb qayd etildi Xitoy hukumati Hongkong va Makao birligida e'lon qilingan hujjatida.

Xitoy hukumati mas'ul amaldorlari bayonotlarida keltirilishicha, norozilik namoyishlari avvalida ishtirokchilar kichik bir guruh radikallardan iborat bo'lgan. Bu guruhda, asosan, adashgan va noto'g'ri yo'naltirilgan oddiy fuqarolar jam bo'lgan edi. "Biz vijondsiz va zo'ravon jinoyatchi-

larga va ularning orqasidagi qabih kuchlarga qarata bir so'z aytmoqchimiz: o't bilan o'ynashganlar halok bo'ladi, — deyiladi bayonotda. — Bu tartibsizliklar ortida turganlar oxir-oqibat, albatta, jazolanadi". "Markazni ishg'ol et" harakatining giyijlovchisi sifatida huquq professori Benni Tay, sotsiologiya professori Chan Kin-Man va pop Chu Yiuminglar ko'rsatilmoqda. Bu uchalarining ham o'xshash tomonlari uzoq yillar Angliyada yashagani va bu o'lkada ta'lim olganliklaridir. Qirolchaning amri bilan harakat qilayotgan ushbu uchlik "demokratiya"ni bahona qilib olgan.

Rasmiy Pekin ikki oydan beri to'xtamayotgan norozilik aksiyalaridan terror hidi kelayotganini tan oldi va shaharga xalq politsiyasining harbiy texnikalarini olib kirishga qaror qildi. Politsiyachilar va namoyish ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuvlar oqibatida o'nlab odamlar og'ir yaralangan, 200 dan ziyod fuqaro qo'lga olingan. Namoyishchilar nafaqat ko'chada, balki metropolitenida ham politsiyachilarni toshbo'ron qilishdan tiya olmagan. Xitoy butun to'polon va fitnalarning ortida AQSh va Angliya turganini iddao qilmoqda va ularni Hongkongdagi tartibsizliklarni qo'zg'ashdan manfaatdor "qora qo'llar" deb atadi. Buning isboti o'laroq, Pekinda ingliz tilida chop etiladigan "China Daily" nashri "Twitter"dagi o'z sahifasida joylashtirgan videolavhada namoyishchilardan birining politsiya xodimlariga qarata M320 rumusli Amerikada ishlab chiqarilgan granatomyotdan o'q uzayotgani aks etgan. Bu esa Amerikaning Hongkongdagi bosh konsulxonasi muxolifat jangchilarini o'z aksiyalarini davom ettirish uchun pul va varaqlardan boshqa narsalar bilan ham ta'minlayotganiga ishora qiladi. Hongkongdagi norozilik chiqishlari AQSh va Britaniya maxsus xizmatlari qiyofasidagi uchinchi shaxslar tomonidan rejalashtirilgani va boshqarilayotgani xususida ekspertlarda shubha qoldirmadi. Hamma gap Xitoy rasmiylarining o'z ichki ishlariga tashqaridan aralashuvga yana qancha sabr-toqat qilishida qolgan. Hongkongda norozilardan iborat birmuncha radikal faollar guruhi shakllangan bo'lib, o'z aksiyalarini qasddan shaharliklarning normal hayotini buzish va Hongkong xalqaro maqomini tahdid ostida qoldirish maqsadida o'ta hayotiy muhim obyektlar yaqinida o'tkazmoqda. Agar oldin norozilar qo'lida Hongkong bayrog'i bilan birga Amerika va Britaniya bayroqlari hilpiragan bo'lsa, endi ular qo'llarida qurol-yarog'ni ham ko'rish mumkin.

Muxolifat Hongkongning yuz minglab fuqarolari noroziligidan foydalanib, Pekin-

ni 1989-yildagi Tyananmen maydonidagi hodisalarga bo'lgani kabi keskin choralariga qo'l urishga chorlayotganga o'xshaydi. O'shanda Xitoy obro'siga, uning "iqtisodiy mo'jizasi"ga qudratli va uzoq muddatli zarba berilgan edi. Joriy etilgan iqtisodiy jazolar XXR iqtisodiyotini birmuncha sekinlashtirgan bo'lib, ularning ayrimlari shu kungacha davom etib kelyapti. Aftidan, g'arbdagi xitoyshunos "miya markazlari" va maxsus xizmatlar nainki Hongkongdagi, balki Xitoydagi muxolifat bilan hamkorlikda og'riqli "zaif nuqtalar"ni qidirayotgan ko'rinadi.

Maxsus hudud konstitutsiyasi nima deydi?

Hongkong konstitutsiyasi shaharga Xitoy Ozodlik xalq armiyasidan tashqari boshqa kuchlarning kirishiga imkon bermaydi, shunda ham faqat Syangan ma'muriyati rahbarining talabi kerak bo'ladi. Biroq Pekin konstitutsiyasining 18-moddasiga tayanishi mumkin, unga ko'ra, Hongkong hukumati tartibini saqlay olmasa, Butunxitoy xalq vakillari yig'ilishi komendantlik soatini joriy etishi va shaharga politsiyani jo'natishi mumkin.

Syanganga nisbatan kuch qo'llash masalasida Qo'shma Shtatlar keskin pozitsiyada turibdi. Agar Pekin kuch qo'llasa, Vashington iqtisodiy sanksiya joriy etish bilan tahdid qilyapti. AQSh Senatining rahbari Mitch Makkonnell mabodo Pekin norozilik namoyishlarini zo'ravonlik bilan bostirsa, Xitoyga sanksiyalar qo'llashga chaqirmoqda, vaholanki, prezident Donald Tramp bu vaziyatni Xitoyning ichki ishi deb atadi.

Bosimlar ortidagi maqsadlar

Aslida Xitoyga ko'rsatilayotgan bosimlar ortida boshqa gap bor. Xitoy keyingi paytlarda qiymati bir trillion dollardan oshib ketgan "Bir makon — bir yo'l" tashabbusini ilgari suryapti. Bu 100 dan ziyod davlatni infratuzilmalar — temir yo'l va transport yo'llari hamda dengiz orqali birlashtirib turuvchi, ular o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbus bo'lib, Osiyo, Yevropa va Afrikaning o'zaro yaqinlashtiradi. Ammo ayrim siyosiy doiralarda bu rejalar amalga oshmasligi uchun Pekinga turli usullar orqali bosim ko'rsatishga urinyapti. Targ'ibot-tashviqot yo'nalishida birinchi navbatda xitoyliklar uchun hissiyotli nuqtalarda, hatto Tayvan masalasida ish olib borilmoqda. AQSh borgan sari o'zining sevimli mavzusi — inson huquqlari borasidagi o'yinlarini o'ynamoqda: Shinjonda musulmon aholining huquqlari kamsitilyapti, ular uchun konsentration lagerlar qurilgan qabiladagi ayblovlar ilgari surildi. Tibetda budda dindorlari ta'qib qilinayotgani, xitoylik huquq himoyachilari tazyiq ostiga olingani, hongkonglik namoyishchilar kaitaklanayotgani va hokazo tanqidlar yog'dirilyapti.

Ikkinchidan, Xitoy yaqin 5—10 yil mobaynida hozirgi sur'atlarda rivojlansa, yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha AQShni ortda qoldirib, dunyoning birinchi raqamli iqtisodiyotiga aylanishi bashorat qilinayapti. Boz ustiga, Chinning Osiyo, Afrika va Yevropadagi sarmoyalari va ta'siri shu qadar oshib ketdiki, bu dunyoga ega-lik qilish umididagi ayrim siyosiy markazlarga yoqmasligi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan, dunyoda Xitoyning salbiy obrazini shakllantirish kampaniyasi asosiy planga ko'chdi. Olaylik, amerikaliklar, Xitoy razvedkasi ma'lumotiga ko'ra, Hongkongda josuslik tarmog'ini kuchaytirishga kirishdi. U yerda Xitoyning qolgan qismidan farqli o'laroq, ingliz maxsus xizmatlaridagi sheriklari tufayli katta agentura tarmog'ini yaratishgan. Hongkongdagi tartibsizliklar ikki oydan beri davom etmoqda, ilk kishilarda Pekin AQShni "Hongkong qartasi"ni o'ynash urinishida ayblashga botinolmadi, bunga jiddiy asoslari bo'lsa ham. Pekin, eng avvalo, savdo urushini bir yoqli qilishni xohlagandi. Biroq Vashington Syangan voqealariga aralashmay, bir chekkada tomoshabin bo'lib o'tirishni istamadi. AQSh rahbarlari nafaqat namoyishchilar talabini qo'llab-quvvatladi, balki ularning vakillari bilan uchrashishga kirishdi. Bu bevosita chaqiriq bo'lib, savdo urushining kattalashishini istamaganligi uchun tishini tishiga qo'yib turgan Xitoyni quyushqondan chiqarib yubordi. Xususan, "Jenmin jibao" gazetasida "Xitoy tashqi kuchlarga Syangan ishiga aralashishga yo'l qo'ymaydi" sarlavhali maqola e'lon qilingan bo'lib, unda Qo'shma Shtatlar Hongkongdagi voqealarga bevosita aralashishda ayblanadi.

Gazeta ma'lumotiga ko'ra, fevral oxiri mart oyi boshida AQShning Syangan va Aomindagi bosh konsulligi Syangan ma'muriyatini "bir mamlakat, ikki tizim" tamoyiliga tuzatish kiritgani uchun ochiqdan ochiq qoraladi, bu bilan hududning ichki ishiga aralashdi. Mart oyida AQSh vitse-prezidenti Mayk Pens Syangan muxolifati vakillari bilan Qo'shma Shtatlarda uchrashdi. May oyida AQSh davlat kotibi Mayk Pompeo ham Syangan muxolifati vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi va maxsus ma'muriy tuman rahbariyatining ekstraditsiya to'g'risidagi qonunini o'zgartirishga urinishini ochiq qoraladi. Iyun oyida AQSh Kongressi Vakillar palatasining raisi Nensi Pelosi Syangandagi namoyishlar "chiroyli manzara" sanatlashini ochiq bayon qildi. Iyul oyida Pens, Pompeo va AQSh prezidentining milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Jon Bolton navbatma-navbat Syangan muxolifatini arboblari bilan uchrashdi. Shu kunlarda Pelosi xonim yana bayonot qaratib, "Syanganda inson huquqlari va demokratiya bo'yicha loyiha"ni ilgari surish lozimligini, hozir u Kongress doirasida muhokama qilinayotganini, demokratiya, ozodlik va qonun ustuvorligini himoya qilish uchun sa'y-harakatlarni safarbar etish lozimligini uqtirdi.

Shuning uchun Xitoy tashqi kuchlar tezroq "og'izlarini yumishiga" va Syanganning ichki ishlariga aralashmasligiga umid qiladi, dedi Xitoy tashqi ishlar vazirligi vakili Xua Chunin.

Ochiq'ini aytganda, Amerika tomonining "Hongkongdagi demokratiya va zo'r erkinligini hurmat qilish" to'g'risidagi bayonotini u yerdagi voqealarga nisbatan mutlaqo qo'llab bo'lmaydi. Gap so'z erkinligi haqida emas, Hongkong qonunchiligiga o'zgartishlar kiritish haqida bormoqda.

Abduvali SOYIBNAZAROV

12

Taʼlim muassasalari rahbarlari, oʻqituvchilar, ota-onalar va oʻqituvchilar diqqatiga!

2019/2020-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini darsliklar bilan taʼminlashning ijara tizimiga kiritilgan taʼlim oʻzbek tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara toʻlovi miqdorlari

Sinf	Toʻplamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari roʻyxati	Toʻplamdagi darsliklar soni	Darsliklar toʻplami uchun bir yillik ijara narxi (soʻm)
2	Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Tasviriy sanʼat, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Mehnat taʼlimi, Chet tili va uning mashq daftari.	12	23 200
3	Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Tasviriy sanʼat, Musiqa, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	10	25 800
4	Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	11	18 300
5	Ona tili, Adabiyot (1-, 2-qism), Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Botanika, Tabiiy geografiya boshlangʻich kursi, Vatan tuygʻusi, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Informatika.	13	13 000
6	Ona tili, Adabiyot (1-, 2-qism), Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Informatika, Geografiya, Vatan tuygʻusi, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	15	15 800
7	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	16	20 000
8	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Oʻzbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Informatika, Chizmachilik.	16	40 700
9	Ona tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari), Jahon iqtisodiy-jitmoiy geografiyasi, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Chizmachilik.	16	38 500
10	Ona tili, Adabiyot (1-, 2-qism), Geografiya, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Ona tili, Adabiyot (1-, 2-qism), Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yoʻqotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51- bandiga asosan tiklanadi.

2019/2020-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini darsliklar bilan taʼminlashning ijara tizimiga kiritilgan taʼlim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara toʻlovi miqdorlari

Sinf	Toʻplamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari roʻyxati	Toʻplamdagi darsliklar soni	Darsliklar toʻplami uchun bir yillik ijara narxi (soʻm)
2	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Jismoniy tarbiya, Mehnat taʼlimi, Chet tili va uning mashq daftari.	13	23 200
3	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	11	25 800
4	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	12	18 300
5	Oʻzbek tili, Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Informatika, Botanika, Tabiiy geografiya boshlangʻich kursi, Vatan tuygʻusi, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Musiqa.	13	13 000
6	Oʻzbek tili, Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Geografiya, Vatan tuygʻusi, Informatika, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Musiqa, Chet tili.	15	15 800
7	Oʻzbek tili, Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	17	20 000
8	Oʻzbek tili, Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Oʻzbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Informatika, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Chizmachilik.	17	40 700
9	Oʻzbek tili, Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari), Jahon iqtisodiy-jitmoiy geografiyasi, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Chizmachilik.	17	38 500
10	Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Geografiya, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Qoraqalpoq tili, Adabiyot, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yoʻqotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51-bandiga asosan tiklanadi.

2019/2020-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini darsliklar bilan taʼminlashning ijara tizimiga kiritilgan taʼlim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara toʻlovi miqdorlari

Sinf	Toʻplamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari roʻyxati	Toʻplamdagi darsliklar soni	Darsliklar toʻplami uchun bir yillik ijara narxi (soʻm)
2	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Jismoniy tarbiya, Mehnat taʼlimi, Chet tili va uning mashq daftari.	13	23 200
3	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	11	25 800
4	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	12	18 300
5	Oʻzbek tili, Qozoq tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Botanika, Tabiiy geografiya boshlangʻich kursi, Vatan tuygʻusi, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Informatika.	13	13 000
6	Oʻzbek tili, Qozoq tili, Adabiyot, Rus tili, Matematika, Fizika, Tarix, Vatan tuygʻusi, Botanika, Geografiya, Informatika, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Musiqa, Chet tili.	15	15 800
7	Oʻzbek tili, Qozoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	17	20 000
8	Oʻzbek tili, Qozoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Oʻzbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Informatika, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Chizmachilik.	17	40 700
9	Oʻzbek tili, Qozoq tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari), Jahon iqtisodiy-jitmoiy geografiyasi, Informatika, Chizmachilik.	17	38 500
10	Qozoq tili, Adabiyot, Geografiya, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Qozoq tili, Adabiyot, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yoʻqotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51- bandiga asosan tiklanadi.

2019/2020-oʻquv yilida umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini darsliklar bilan taʼminlashning ijara tizimiga kiritilgan taʼlim tojik tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara toʻlovi miqdorlari

Sinf	Toʻplamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari roʻyxati	Toʻplamdagi darsliklar soni	Darsliklar toʻplami uchun bir yillik ijara narxi (soʻm)
2	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Jismoniy tarbiya, Mehnat taʼlimi, Chet tili va uning mashq daftari.	13	23 200
3	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	11	25 800
4	Oʻzbek tili, Ona tili, Oʻqish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Chet tili mashq daftari.	12	18 300
5	Oʻzbek tili, Tojik tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Informatika, Botanika, Tabiiy geografiya boshlangʻich kursi, Vatan tuygʻusi, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi.	13	13 000
6	Oʻzbek tili, Tojik tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Geografiya, Vatan tuygʻusi, Informatika, Tasviriy sanʼat, Mehnat taʼlimi, Musiqa, Chet tili.	15	15 800
7	Oʻzbek tili, Tojik tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy sanʼat, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	17	20 000
8	Oʻzbek tili, Tojik tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Oʻzbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Informatika, Chizmachilik.	17	40 700
9	Oʻzbek tili, Tojik tili, Adabiyot, Rus tili, Oʻzbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari), Jahon iqtisodiy-jitmoiy geografiyasi, Informatika, Chizmachilik.	17	38 500
10	Tojik tili, Adabiyot, Geografiya, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Tojik tili, Adabiyot, Oʻzbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, Oʻzbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Maʼnaviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yoʻqotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51- bandiga asosan tiklanadi.

Ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

2019/2020-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarini darsliklar bilan ta'minlashning ijara tizimiga kiritilgan ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara to'lovi miqdorlari

Sinf	To'plamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari ro'yxati	To'plamdagi darsliklar soni	Darsliklar to'plami uchun bir yillik ijara narxi (so'm)
2	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy san'at, Jismoniy tarbiya, Mehnat ta'limi, Chet tili va uning mashq daftari.	13	23 200
3	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Chet tili mashq daftari.	11	25 800
4	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Chet tili mashq daftari.	12	18 300
5	O'zbek tili, Qirg'iz tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Botanika, Informatika, Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, Vatan tuyg'usi, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi.	13	13 000
6	O'zbek tili, Qirg'iz tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Geografiya, Vatan tuyg'usi, Informatika, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Musiqa, Chet tili.	15	15 800
7	O'zbek tili, Qirg'iz tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	17	20 000
8	O'zbek tili, Qirg'iz tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, O'zbekiston davlat va huquq asoslari, Milliy istiqlol g'oyasi, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Chizmachilik.	17	40 700
9	O'zbek tili, Qirg'iz tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetik asoslari), Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi, Chizmachilik.	17	38 500
10	Qirg'iz tili, Adabiyot, Geografiya, O'zbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, O'zbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Ma'naviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Qirg'iz tili, Adabiyot, O'zbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, O'zbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Ma'naviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51- bandiga asosan tiklanadi.

2019/2020-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarini darsliklar bilan ta'minlashning ijara tizimiga kiritilgan ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablarda darsliklar va mashq daftarlari uchun belgilangan ijara to'lovi miqdorlari

Sinf	To'plamga kiritilgan darslik va mashq daftarlari ro'yxati	To'plamdagi darsliklar soni	Darsliklar to'plami uchun bir yillik ijara narxi (so'm)
2	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Atrofimizdagi olam, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy san'at, Jismoniy tarbiya, Mehnat ta'limi, Chet tili va uning mashq daftari.	13	23 200
3	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Chet tili mashq daftari.	11	25 800
4	O'zbek tili, Ona tili, O'qish kitobi, Rus tili, Matematika, Tabiatshunoslik, Odobnoma, Musiqa, Jismoniy tarbiya, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Chet tili mashq daftari.	12	18 300
5	O'zbek tili, Turkman tili, Adabiyot, Rus tili, Tarixdan hikoyalar, Matematika, Informatika, Botanika, Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, Vatan tuyg'usi, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi.	13	13 000
6	O'zbek tili, Turkman tili, Adabiyot, Rus tili, Tarix, Matematika, Fizika, Botanika, Geografiya, Vatan tuyg'usi, Informatika, Tasviriy san'at, Mehnat ta'limi, Musiqa, Chet tili.	15	15 800
7	O'zbek tili, Turkman tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Zoologiya, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Informatika, Musiqa, Tasviriy san'at, Mehnat (Texnologiya), Chet tili.	17	20 000
8	O'zbek tili, Turkman tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, O'zbekiston davlat va huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Odam va uning salomatligi, Geografiya, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik.	17	40 700
9	O'zbek tili, Turkman tili, Adabiyot, Rus tili, O'zbekiston tarixi, Jahon tarixi, Konstitutsiyaviy huquq asoslari, Iqtisodiy bilim asoslari, Informatika, Algebra, Geometriya, Fizika, Kimyo, Biologiya (Sitologiya va genetik asoslari), Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Chizmachilik.	17	38 500
10	Turkman tili, Adabiyot, Geografiya, O'zbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, O'zbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Ma'naviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism.	17	27 200
11	Turkman tili, Adabiyot, O'zbek tili, Rus tili, Fizika, Jahon tarixi, O'zbekiston tarixi, Organik kimyo, Informatika va axborot texnologiyalari, Biologiya, Davlat va huquq asoslari, Ma'naviyat asoslari, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, Dunyo dinlari tarixi, Matematika (Algebra va analiz asoslari, Geometriya) 1-, 2-qism, Astronomiya, Tadbirkorlik asoslari, Chet tili.	19	34 700

Izoh: Yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan darsliklar 2577-Nizomning 51- bandiga asosan tiklanadi.

Jo'rayev Sherzod Sultanbayevichning 11.00.02 — Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston sanoati rivojlanishining hududiy xususiyatlari" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.G.01.06 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 11-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: ikgeografiya@mail.ru

Israilov Xikmatjon Tuygunovichning 14.00.11—Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Retsidivlanuvchi genital uchuqning klinik-immunpatogenetik xususiyatlarini o'rganish asosida davolash usulini yaratish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi,

223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Xurramov Anvar Jumanazarovichning 13.00.02— Ta'lim va tarbiya nazar-yasi va metodikasi (matematika) ixtisosligi bo'yicha "Matematika o'qitish metodikasi" fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.03.2019.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi,

104-uy. Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Biofizika va biokimyo instituti direktori, akademik Ravshan Sabirovga otasi
kimyo fanlari doktori, professor Zoir SABIROVning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Reklama • e'lon

Yuldashev Alo Asqarovichning 06.02.03 — Xususiy zootexnika. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Chetdan keltirilgan qoramol avlodlarining etologik ko'rsatkichlari va sut mahsuloldorligi bilan o'zaro bog'liqligi" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018.Q/x.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 17-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy, ToshDAU,

ma'muriy bino, 1-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag_info@edu.uz

Raxmatova Sanobar Nizamovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Serebrovaskulyar kasalliklar kechishida uchraydigan kognitiv buzilishlarning jinsga va yoshga bog'liqligining o'ziga xosligi" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi,

51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Israilova Nigora Amanullayevnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Yosh bolalarda o'tkir pnevmoniyada yurak-qon tomir sistemasi-ning holati, oqibatini prognozlash va korreksiyalash yo'llari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 5-sentabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi,

223-uy. Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti jamoasi universiteti professori Davron Matrasulovga otasi

Urinboy ota MATRASULOVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.



Qo'ng'iroq chalinguncha

Oroldagi do'stim, ismingni ham bilmay sen bilan xayrlashmoqdaman. Bu chalkash yo'llarda qaytib uchramamizmi, yo'qmi, bilmayman. Duch kelgan taqdirda ham boshqa do'stlar singari bir-birimizga aytadigan sirimiz bo'ladimi, yo'qmi, buni ham bilmayman.

Meni do'st deb qabul qildingmi yoki yotsirab turdingmi, bu ham menga qorong'u... Safarga o'tlanar ekanman, yodimni turli xayollar chulg'agan edi, ularning isboti o'laroq sen qovoqlaringni ochmasdan bizni qarshi olding va uyga boshlab kirding. Xonalar bilan tanishtirar ekansan, "unchalik xushlamadi-yov" degan xavotirda bo'ldim. Ammo kechki ovqatda etagingga osilib, xarxasha qilayotgan qizchangni ko'rib seni haminqadar tushundim va hovlidagi suhbatda meni hayajonga solishga ham ulgurding. To'g'ri-da, farzandi nuqson bilan tug'ilgan onaga oson emas, axir!

"Oroldagi odamlar" turkumidan

Xayrlashuv maktubi

O'qishimni so'rating, ayt-dim. Tengdoshligimni bilib ikkimiz ham biroz xijolat chek-dik.

— Qiz paytim to'mpoq edim, keyin azib ketdim, — deysan qaroq lablaringga yol-g'on kulgi chaqirib. Va yana — Turmushga shiqmadengmi? — deysan.

— Yo'q, endi-da... — dey-man dunyoni olifta shaharning qarichi bilan o'lchab.

Sen ham ichingdagini ay-tasan-qo'yasan:

— Turmush quruv-ing shartmi? Shunday jurganing durug'o'y.

Nima deyishni bilmay qol-dim... Juda noqulay bo'ldim. Yo sening tilingni yaxshi tu-shunmadimmi, deb yuzingga tikildim. Chehrangdagi ma'no qotib qolgandek, lablaring qim-tilgan, nigohlaring og'ir edi.

— Qizchangiz necha yosh-da? — so'radim oxiri suhbatni o'nglashga urinib.

— Ush yoshda. Avvalgisi o'g'il edi, o'ldi...

Ortiq chidamadim. Ichkariga otildim...

Men sening og'riqlaringning bir zarrasini his qilamanmi, yo'qmi. Biroq senga mehrim tushdi. Chetdan turib xatti-harakatlaringga nazar tash-layman. Biroz jahl aralash qadam olishing va faqat qizing oldida unutilgan tashvishlaring ko'nglimda botiq iz qoldirdi. Yodingdami?! Kunlarning biri-da kelinlik xonangga boshlab bording. "Bularni ko'ri!" deb sharqona liboslar, do'ppi, du-tor hamda chanqovuzga ishora qilding.

— Bular kelinlik liboslarin-gizmi?

— Yo'q, men bularni kiyib qo'shiq aytaman, — deysan go'yo mening bungacha bo'lgan tasavvurlarimni chippakka chi-qarib.

— Chanqovuz ham chalasiz-mi? — Xayollarim derazasidan

o'tob ko'ringandek savolga tutaman.

— Ha, chanqovuz onamni-ki. Onam hozir shifoxonada. Ko'krak saratoni bo'lgan...

— Xudo shifo bersin! — deyman bahor o'tobiga aldan-gandek xijolat tortib.

— Ush oydan beri yubor-maydi... — deysan ayvonda o'tirganlarga ishora qilib. — Ko'rgani borolmadim...

— Opa-singillaringiz bormi? Ular borib turishgandir?

— To'rt qizimiz. Ikkovini qo'lda bubagi bor — shiqol-maydi, mening ahvolim bu... — deysan menga tushunarli gapirish uchun o'z tilingga o'zbekcha aralashtirib.

— Eringiz yubormaydimi?

— Uning unsha ishi jo'q... — indamaydi. Angladim, gap qaynonang haqida ketar edi. Bir so'z deyolmadim. Axir bu sening oilang, bu sening hayo-ting edi.

— O'zingiz yoqitirib turmush qurganmisiz? — deb so'radim.

— Meni olib qochg'ang'o'y. Musiqi maktabida o'qib jur-gandim, jigitim bor edi. U olib qochuvig'a to'rt kun qolg'anda bu olib qoshdi.

Oroldagi dugonam, men senga taskin berolmadim. Ik-kimizni-da ovutish uchun:

— Qo'shiq aytib bering, — deyman dutorni qo'limdan qo'ymay. Sen dutorni olib tor-larini sozlaysan. Kuylaysan-u ovozing qafas ichidagi qush sayrog'idek eshitiladi:

*Men yarimni ko'ray deb,
Shiqdim dengiz bo'yina...*

Deraza ortiga tikilaman. Go'yo saksovuilar sahradan bosh olib ketayotgandek tuyu-ladi:

Ikki kundan keyin yuzingda quvonch ko'rindi.

— Ertaga onamni ko'rishga ketaman, ikki kunga. Sen hali ketmaysanmi?

Ketadigan kuning esa yig'i-lagan ovozingni eshitdim. Qo'rqib ketdim. Ko'ksing-ga gurs-gurs urib yig'lading. Qaynonangga yig'lab-yig'lab nimalardir deding. Chidolma-dim, ammo birovning oilasiga burningni tiqolmay-san kishi, shuning vajidan o'zimni ko'cha eshigiga urdim. Uzo-o-oq yur-dim... Saksovuilar qara bular ham qachondir dengiz o'ti bo'l-ganmikan, bo'lmasa, bu yerda qanday paydo bo'lgan, degan xayollar bilan o'zimni alday boshladim. Ularga yashash-ni kim o'rgatdi, deyman yana o'yinchoq topib olib, unga tikil-gan boladek. Alaloqibat uyga qaytsam, sen ketgan ekansan. Qaynonangning gapiga qara-ganda, senga tongda emas, tushdan keyin borishga ruxsat berilgan ekan. Sen barvaqt o't-lanibsan, xuddi orol kabi...

— Men ung'a jumslarining bajarib ket, dedim. Shu joman-mi? — dedi qaynonang. Unga ham so'z demadim.

Qaytganingdan so'ng av-valgidan ham o'ychan bo'lib qolding. Buning sababi men-ga qorong'i, senga esa azob-li. Ko'chaga chiqdim, ham-rohlarim qaytishga taraddud ko'rishim kerakligini aytishdi. Mana ortga qaytish kerak, axir meni qishlog'ingda topilmay-digan manfaatli shovqin-sur-onlar kutmoqda. Ha, seni ertaga yo indin unutib yuborishim tayin, biroq izg'irinli kechada, sahyoyi ovoz bilan "turmush quruv-ing shartmi?" deganing quloq-larimga qayta-qayta chalinishi-ni his qilyapman. Shu xayollar bilan ichkariga kiranman, sen jim. Xonamga bosh suqaman, xonam jim. Ko'chimni ko'tarib ko'chaga chiqaman — ko'cha jim. Avtoularning qum bosgan darchalaridan bir paytlar dengiz shovullagan sahraga tikilaman, u ham jim kuzatadi. Axir na unga, na sening umringga kelib ketayotgan birinchi odam emas-man.

Xayr, Oroldagi dugonam!

Madina NORCHAYEVA

Ustozga ehtirom

(Muallima Aziza Boymurodovaga shogirdlarining dil so'zlari)

Aziz ustozim! Siz butun hayotini yurt bolalarining ta'lim-tarbi-ya olishiga bag'ishlagan, ota bo'lib boshini silagan, ona bo'lib mehr va ilm bulog'idan bahramand etgan, shogirdlarining quvonchlariga sherik, dardlariga dardkash bo'lib yashagan zahmatkash inson. Qo'llaringga qalam tutib, hijjalab harf tanitgan, inijliklaringga chi-dab, quvnoq bolalik yillarim bilan umrim parchasiga aylangan jafokashim. Siz doimo go'zal va samimiy chehrangiz, shirin va purhikmat so'zlaringiz, mehrli ko'zlaringiz, sehrli qo'llaringiz, o'tob qalbingiz bilan menga namuna bo'lgansiz. Ko'zgu oldida soatlab sizdek gapirishni, sizdek yurishni, sizdek she'rilar o'qishni mashq qilganman. Siz mening sevimli insonim, odam qiyofasidagi farishtam edingiz. Sizga ergashib she'rilar yozdim, sizga havas qilib muallim bo'ldim. Siz butun umr hayotning barcha sohalarida menga o'rnak bo'ldingiz. Fidoyi ustoz, fozila kelin, sevimli yor, oqila ona, dardkash opa, oqi-batli farzand, sadoqatli do'st bo'lishni sizdan o'rgandim. Siz doim odamlarga yaxshilik qilib xursand bo'lasiz. Qanday bayram bo'lma-sin, ustozlarni, keksalarni, bemorlarni yo'qlaysiz. Ro'zg'or tutish-da, farzand tarbiyasida ko'plar sizga havas qiladi. Tadbirkor rahbar, sevimli ustoz, dilbar shoir sifatida tumanda, viloyatda, respublikada o'z o'rningiz bor. Men sizday ustozga shogird ekanligimdan faxrlana-man. Ammo shuni ham bilamanki, mendek shogirdlaringizning son-sa-nog'i yo'q. Qadrligim, ko'nglim ardog'idagi farishtam, doimo sog'-omon bo'ling! Siz sevgan, sizni sevgan shogirdlar kamolidan quvonib, faxrlanib yuring!

Ehtirom ila shogirdingiz Zamira!

Dilbar shoir, qalbimiz ardog'idagi ustoz Aziza Boymurodovaga bag'ishlayman.

Pokiza ko'nglingiz sehrli ma'vo,
Kamalakday sochar sirlaringizni.
Atirgul qatiday sehrli tunlar,
Quchoqlab uxladim she'r'laringizni.

Satrlarda isyon qilar ruhingiz,
Titraydi yuragim ostonasida.
Dunyoni bezagan dardlaringizni,
Mehmon qilar ko'nglim koshonasida.

Taxayyul atriga qonganda vasl,
Shaffof tuyg'ularim atalar sizga.
Ikki dunyoda ham bo'laman asir,
Sog'inchdan yaralgan yuragingizga.



Zamira TEMIROVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
61-maktab o'qituvchisi

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ularning butun hayoti ibrat va hikmatdan iborat. Go'yo ularsiz bu rangin dunyo rangsiz, bu yorug' olam qorong'idek. Ana shunday ulug' insonlardan biri — mening birinchi o'qituvchim Aziza Boymurodovadir.

Shirin so'zli, qalbi dunyo-dunyo mehrga to'la bu ayolni tani-gan inson u kishini, albatta, yaxshi ko'rib qoladi. Oilada farzand-lari uchun yaxshi ona, nabiralari uchun sevimli buvijon, shogird-lar uchun esa eng yaxshi ustoz. Shogirdlarining orzulariga qanot berishga qodir, ularni ruhlanitira oladigan, oldiga ulkan maqsadlar qo'yib, ana shu maqsadlar sari olg'a borishni, qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni o'rgata oladigan mahoratli pedagog.

9-10 yoshlarda paytim kichik-kichik she'rilar mashq qilaman, she'rilarimni o'qigan ustoz esa "Ajoyib yozibsan", deya she'riyat-ga mehrimni oshirardi. Qo'llarimdan yetaklab tuman markazidagi tadbirlarga, gazetalarga olib borardi. Kichkina qizaloqning ko'ngli kichkina minbarlarda she'r o'qib, tog'dek ko'tariladi. Va har doim ustozidek she'r yozishga, she'r o'qishga havasmand bo'ladi.

Ko'ngli gullarga oshufta Aziza Boymurodova rahbarlik qilardim maktabga borsangiz, u yerdagi gullarni ko'rib bahrdilingiz ochi-ladi. Qo'llari har doim ko'ksida o'quvchilarning she'r o'qishlarini ko'rib dilingiz yayraydi. Bu yerda talabchan va mehribon rahbar hech bir o'quvchiga bee'tibor emasligini ko'rish mumkin.

Madhiya ABDURAHMONOVA,
Toshkent shahridagi
129-maktab o'qituvchisi

Davrada "halol" degan o'zbekona lutf yangraganida ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Mustaqillik farzandlari

Jabbor bakovulning ushalgan armoni

"Katta imoratlar, zamonaviy texnikalar bilan maqtanish kerak emas. Aqlli, bilimli, fidoyi farzandlarni tarbiyalasak va ular Vatanga xizmat qilsa, eng katta boylik, baxt mana shu".

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bundan yigirma sakkiz yil muqaddam, yurt istiqloli e'lon qililib, uning mazmun-mohiyatiga birov tushunib, birov tushunmay turgan kunlar urush, ocharchilik, mustabid tuzum qiyinchiliklarini boshdan kechirgan, ayovsiz siyatlarni jabrini tortgan keksa tanishim:

— Mustaqillik bu — orzular ro'yobga chiqadigan VATAN, — degandi.

1

Jabbor aka bakovullik qilganida kurashli to'y davrasiga ko'tarinki ruh endirardi. Yonna-yon bilim maskaniga rahbarlik qilganimiz bois kunda-kunora soatlab suhbatlashardik, mavzu har gal ta'limdagi ahvol, muammo va yechimlar bilan boshlanib, beixtiyor katta-kichik kurash davrlari, ularda to'y bergan qiziq voqealarga tutashib ketardi.

Eng sevimli mashg'uloti matematik misol va masalalarni yangi-yangi uslublarda yechish bo'lgan Jabbar aka bolalik va o'smirlik yillaridan oq'lo'p tengdoshlari qatori pomuqlik yelkasi yerga tegman bahodir — Hakim polvonga ergashib kurash davrlariga qatnash, terga botib kurash tushishni o'z hobbisiga aylantirgandi. Davralarni to'ldirib kurash tushgan davrlari ortda qolganidan keyin esa vohadagi taniqli bakovullar safidan joy oldi. Xalq sayillari, to'y davrlarida bakovullik qiliish uchun birlina gappa chechanlik emas, kurash va ko'pkari hadisini puxta egallaganlik talab etiladi.

— Polvonning oriyati bo'lgani yaxshi, oriyatli polvon to'rt-besh so'm pul uchun davraga tushmaydi, o'zini yetishtirgan el sha'nini o'ylaydi;

— Xaloyiq, mana shu polvonning

chiroyli chili uchun borg'isiga (kurashda olishayotgan tomonlar g'olibi uchun qo'yilgan sovrin, mukofot) falon pul ochko berdim, tarafdori bo'lsa, borib olsin;

— Barakalla, azamat, o'ynab-o'ynab olish...

Yuqoridagilar Jabbor aka ishlatadigan iboralardan ayrimlari. Uning g'alati odati bo'lardi. Talabgor bo'lib davraga chiqqan polvonning bilagidan ushlab, aftiga yaxshigina sin solardi, keyin esa ayrimlariga:

— Polvon, kim ekanligingizni shash-
tingizdan bildim, bular tengingiz emas,
ozgina dam olib turing, siz bilan toboq-
larda uchrashamiz;

Yoki u bilan olishishga chiqqan yig-
itga:

— Sen o'zi bu yigitni tanib chiqyapsanmi? Bilmasang bilib qo'y, u oddiy polvon emas, chempio-on, — derdi.

Va har gal o'z ishining hadisini olgan bakovulning so'zlari isbotini topardi.

O'zbek kurashi istiqloql tufayli jahonga yuz tutganida eng ko'p faxr tuyganlardan biri Jabbor aka desam mubolag'a bo'lmaydi. Keksalik gashtini surayotgan domlanning bir armoni bor edi.

— Uka, kurash davralariga vaqti-
da Xidir, Atoq, Panji, Hakim, Jumaqul,
Turdi polvonlarni yetkazib bergan qish-
log'imizdan nahotki bitta, bittagina
champion vetishib chiqmasa, — derdi.

2

...Shu yil yoz kunlaridan birida akam
— Orif hoji ko'pdan buyon intiq bo'lib
kutgan yangiligimni aytib qoldi:

— Bugun Toshtemirnikiga borgan-

dik, o'g'li Tailandda o'tadigan Osiyo chempionatiga ketayotgan ekan, yoshulilar oq fotiha berib qaytdik, omadini bersin, ancha chinigqan yigit ekan.

Va oradan uch yoki to'rt kun o'tmay, qishloqda xushxabar targaldi:

— Sardor o'z vazni bo'yicha o'smir-
lar o'rtasida Osiyo chempionligini qo'lga
kiritibdi.

Rosti, kechagina maktab partasidan chiqqan o'quvchimizning yutug'i uchun bir sevingan bo'lsam, orzulari ro'yobi-ni ko'rolmay ketgan Jabbor domlaning ushalgan armoni uchun ikki sevindim. Haligacha ko'z o'ngimda turibdi, qish-loq kurashli to'ylaridan birida davrani boshqarayotgan domla havas bilan oq matodan tikilgan jomakor kiyib, belini tang'ib bog'lagan to'rt-besh yoshlardagi bolakavni davraga olib chiqib:

— Birodarlar, oq fотиha beringlar, bu mening nabiram, ilohu duolaring ijobat bo'lib, chempionlik shohsupalariga ko'tarilib, yurt sha'nini ulug'laydigan polvon bo'lib yetishsin. Qani, o'z tengdoshlaridan talabgor bo'lsa chiqsin, bu polvonjonlarga katta mukofot tikaman, — degandi.

Ehtimol o'shanda berilgan fотиha iйobat bo'lgandir, Jabbor akaning nabirasi o'rta maktabning boshlang'ich sinfini tugatgach, Buxoro tumanidagi sport maktab-internatida tahsilni davom ettirdi.

— Ilk ustozim — bobom, keyinchalik esa Buxoroda Rahmatullo Semirovdan kurash sir-asrorini o'rgandim, — deydi Sardor Jongeldivey.

Maktab-internatning 8-sinfida o'qiyotgan yili Sardor ilk bor zafar nashidasini totib, o'quvchi-yoshlar o'rtasida mamlakat chempionini bo'ldi. 2015-yili hikoyamiz qahramoni Qarshi shahridagi Olimpiya zaxiralari kollejida tahsilni davom ettirdi. Uning 2019-yili, o'smirlar o'rtasida mamlakat chempionini bo'lib, Osivo chempionatida ishtirok etgan.

rok etish huquqini qo'lga kiritishida ustozlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Bahodir Hojiyevning xizmatlari katta bo'ldi.

Shu yilning 17—21-iyun kunlari Tailandning Pattaya shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtaqidagi Osiyo chempionatida Sador 66 kilogramm vaznli polvonlar o'rtaqidagi musobaqaning barcha bosqichida Xitoy Taypeyi, Hindiston, Koreya, Vetnamdan tashrif buyurgan tengdoshlari ustidan muddatidan oldin sof g'alabaga erishdi.

— Ayniqsa, so'nggi — final bahsi men uchun ancha tahlilali boshlandi, — deb hikoya qiladi Sardor. — Vetnamlik tenghoshim bilan tengma-teng kurasi tushayotgandim. Kutilmaganda bahsni boshqarib borayotgan hakam menga “dakki” bahosini berdi. Ko'z o'ngimdan menga ishonib qolgan yurtdoshlarim, musobaqaga tayyorlagan ustozlarim birma-bir o'tdi. “Nahot ular bildirgan ishonchni oqlayolmasam” degan fikr bir daqiqa bo'lsin xayolimni tark etmadi. Qisqa tanaffusdan keyin “yo hozir yoki hech qachon” degan niyatda hujuma tashlandim. Rejam ish berdi, mendan shiddatli hujumni kutmagan raqibimni yelkadan oshirib tashladim. Davrada “halol” degan o'zbekona lutf yangraganida ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi.

3

Sardor bobosining armonini ushaltirdi. Chempionlik bilan bir vaqtda kattagina pul mukofoti hamda oliygohga imtiyozli kirish huquqini qo'lga kiritdi. Men esa davrada Jabbor akaning izdoshlaridan kimdir u kabi hayqirib:

— Mana bu yigit Osiyo chempioni Sardor Jongeldiyev, talabgor bo'lsa davraga chiqsin, — deya xitob qiladigan kunlarga yetkazganiga shukronalar aytdim...

Abdunabi ABDIYEV

O'quvchilar badminton bo'yicha bellashdi

Nukusda umumta'lim maktablarining 7—10-sinf o'quvchilari o'rtasida badminton bo'yicha "Yoz – 2019" sport musobaqalarining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi bo'lib o'tdi.



Musobaqada uning quyi bosqichlarida g'olib bo'lgan 50 nafarga yaqin o'g'il-qiz ishtirok etdi.

Umumjamoa hisobi-
da Nukus shahridagi
32-umumta'lim maktabi ja-
moasi g'olib bo'ldi. Kegey-
li tumanidagi 3-umum-
ta'lim maktabi o'quvchilari
ikkinchi, Chimboy tuma-
nidagi 32-umumta'lim
maktabi va Taxtako'pir
tumanidagi 6-umumta'lim
maktabi badmintonchilari
uchinchi o'rinni egalladi.

Maqsad HABIBULLAYEV
(O'zA) olgan suratlar.




Bog'lar quchog'idagi maktab

(Davomi. Boshi 3-betda.)

Kuzatuv kengashi — maktabimiz yuzi

Maktab rahbari J.Qurbonov tashabbusi bilan maktabda sog'lom muhitni mustahkamlash, pedagog kadrlar mas'uliyatini yanada oshirish, o'quvchilarning sifatli ta'lim olayotganini baholash maqsadida kuzatuv kengashi uchun alohida burchak tashkil etilgan. Kuzatuv kengashi faoliyati to'liq aks etgan banner tayyorlanib, unda kengash nizomi, boshqarma qarori, ish rejaları, kengash a'zolari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar, hatto ularning telefon raqamlari ham keltirilgan, — deydi kengash raisi Xayrulla Qarshiyev. — G'urjob qishlog'idagi 9 ta mahallaning har biridan 1 nafar ziyoli, ta'limdan xabari bo'lgan insonlar tanlab olingan. Ota-onalarda biror masalada tushunmovchilik yoki norozilik paydo bo'lsa, maktab rahbariyati aralashuviz, kuzatuv kengashi a'zolari bilan hal qilish imkoni mavjud. Bu, albatta, oshkoralikni ta'minlaydi. Bir yil davomida



amaliy jarayon bilan ko'proq shug'ullandik. Tashkil etilgan bog' va xiyobonlarni obod qilishga direktor bilan bamaslahat homiylarni jalb qildik. Ta'limni rivojlantirish bo'yicha ham o'qituvchilar o'rtasida monitoring olib bordik. Rahbariyat va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabat va boshqa masalalar yuzasidan o'qituvchilarning fikrlari o'rgandik. Natijalardan qoniqdik, kamchiliklarni rahbariyat bilan kelishgan holda bartaraf qilishga erishdik. Bundan tashqari, o'quvchilar o'rtasida ham so'rovnomalar o'tkazdik.

— Qaysi soha bo'lmasin, avvalo, xalq ishonchi juda muhim. Bir soat dars behuda o'tsa, bu o'quvchilar haqiga xiyonat bo'ladi. Buni doim jamoamga uqitirib kelayman. Bizda hamma yagona maqsad yo'lida ishlab kelmoqda, — deydi maktab direktori.

Niginabonu SHUKUROVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, G-829. Tiraj 11632.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulkona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6436



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Zilola Madatova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — 00.15 Topshirildi — 01.15

12 456